

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM KAFEDRASI**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: Turizm turlari va sayohat maqsadlari**

**Bajardi:** **2 -“T” Xamrayeva Ferangiz**

**Ilmiy rahbar:** **i.f.n., dotsent N.S.Ibragimov.**

**Buxoro - 2013 yil**

## **Mundarija:**

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I Bob. Sayohat maqsadlari va turizm turlarining nazariy asoslari</b>	
1.1. Turistlarning sayohat maqsadlari.....	7
1.2. Turizmning turlari va ko’rinishlari.....	12
1.3. Sayohatga bo’lgan ehtiyojni tug’diruvchi omillar.....	24
<b>II Bob. Turizmni rivojlantirishda sayohat turlarining ahamiyati</b>	
2.1. Turizmning zamonaviy turlari.....	28
2.2. O’zbekistonda mavjud sayohat turlari va turistlarning sayohat maqsadlari .....	35
2.3. O’zbekistonda sayohatning yangi turlarini rivojlantirish istiqbollari.....	40
Xulosalar va takliflar.....	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	51

## Kirish

Turizm bugungi zamон iqtisodiyotida katta o`rin tutadi, qolaversa, kun sayin takomillashib, yangilanib bormoqda. Hozirga kelib inson o`zining qiziqishi sohalarini ko`rib ulgurish, qoniqish, o`rganish, tanlash xususiyatlari va imkoniyat darajalaridan to`g`ri foydalanish uchun ishlab chiqarish sohalarini, tabiiy biologik resurslarni, insonlarning yashash tarzlarini alohida-alohida turizm sohasiga aylantirdi.

Hozirgi Rossiyalik mutaxassislarning yozishlaricha jahonda turizmning asosiy turlari 20-22 yo`nalishdan iborat. Ishlab chiqarish sohalarining yoki insonlar guruhining mo`jizakor, mukammal va hayratomuz ko`rinishga ega bo`lgan mahsulotlari, inshootlari insonlar oqimini o`ziga jalb qilishi turizm sohasini keltirib chiqardi, sohadagi turlarning ko`payib borayotganligi ham ana shu omillarga bog`liq.

**Kurs ishi mavzusining dolzarbliyi.** O`zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirishning istiqboldagi maqsadi – respublikaning milliy-madaniy tiklanishi, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va xo`jalik masalalarini hal qilishdir.

Prezidentimizning farmonlarida «Mamlakatimizda turistik resurslarni tadqiq qilish, ishga tushirish, bu resurslardan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo`lga qo`yish» - talablarini amalda bajarish hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 12 noyabrdagi «2006-2010 yillarda O`zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish haqida» gi qarorilarining qabul qilinishi respublika hukumatida ushbu sohaga katta e`tibor qaratilayotganligini ko`rsatadi.

O`zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. O`zbekistonni sharq va g`arbni bog`lab turuvchi «Buyuk Ipak yo`li» dagi belbog` sifatida yaxshi bilamiz.

Turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa – O`zbekistonning tabiiy iqlimi, rekreatsion, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy madaniy salohiyatini hisobga olgan holda

ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan yuqori rentabelli turistlik tarmoqni yaratishdan iborat. Yurtimizda “Turizm” sohasini takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, bu borada qilinishi lozim bo’lgan ishlar dolzarb muammo bo’lib turibdi.

**Mavzuning o’rganilish darajasi.** Turizmdagi turlarni uning shakllari, turistik oqimlari, sayohat maqsadlari, harakatlanish usuli, joylashuv vositalari, ishtirok etuvchilar sonlari, tashkiliy shakllari, sayohatning uzoqliligi bo'yicha va boshqalarni hisobga olgan holda tasniflanishiga o’z e’tiborimni qaratdim.

Bu sohada ko’pgina yurtdoshlarimiz, xususan, I.S.Tuxliyev, Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna , M.N.Pardayev, R.Atabayev, F.S.Qulimurotov, X.Abdulqosimov, R.Xayitboyev. R.Amriddinova, N.E.Ibodullayev, kabilar o’zlarining ilmiy adabiyotlari, darsliklari va o’quv qo’llanmalarida atroflicha bayon qilganlar. Bundan tashqari Rossiyalik M.B. Birjakov, A.P.Durovich, V.A.Kvartalnov kabi mutaxasislarning ilmiy asarlaridan foydalandim. Albatta ushbu mavzuni o’rganish va tahlil qilishda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, farmonlari, qarorlari, qonunlari, nutqlari va suhbatlari asos qilib olindi. Ushbu mavzu yuqorida ta’kidlangan mualliflarning quyidagi ilmiy ishlariga tayanadi: “Samarqand Iqtisodiyot va Servis Institut” «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasи I.S.Tuxliyev “Turizm asoslari ” fanidan o’quv qo’llanma, Samarqand 2010.; “Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti” Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna “Turizm asoslari fanidan” o’quv qo’llanma, Toshkent 2011.; “Samarqand Iqtisodiyot va Servis Institut” M.N. Pardayev, R.Atabayev ma’ruzalar matni, Samarqand 2007.; “Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti” F.S. Qulimurotov, “Turizm infratuzilmasi”, o’quv qo’llanma. –Toshkent 2007.; “Samarqand iqtisodiyot va servis instituti” R.Xayitboyev. R.Amriddinova – “Turizmning maxsus turlari”, uslubiy qo’llanma. Samarqand 2008.; “Samarqand Iqtisodiyot va Servis Institut” N.E.Ibodullayev - “O’zbekistonning turistik resurslari” (ma’ruzalar matni), Samarqand, 2008.; X.Abulqosimov. “O’zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari”. Magistrlilik dissertatsiyasi. TDIU 2005

– 81 b. Rossiyalik mutaxasislar: M.B. Birjakov «Vvedeniye v turizm» Izdatelstvo dom Gerda, 2006.; A.P. Durovich «Organizatsiya turizma» Moskva 2005.; V.A. Kvartalnov «Teoriya i praktika turizma». Moskva.; «Finansi i statistika». Moskva, 2003.

Mavzuni tayyorlash jarayonida quyidagi saytlardan foydalandim:

1. <http://www.travel.ru/news/2012/09/08/205330.html>; 2. [www.uzbektourizm.uz](http://www.uzbektourizm.uz)
3. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru); 4. [www.world-tourism.org](http://www.world-tourism.org); 5. [www.travel-library.com](http://www.travel-library.com);
6. <http://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL>; 7. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

**Kurs ishining vazifalari va maqsadlari.** Turizmdagi turlarni aniqlash va sayohat turlari bo'yicha turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilashdan iborat. Mamlakatimizning turistik salohiyatidan turizm maqsadi uchun oqilona foydalanish lozimligini ko'rsatib berish.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar bajarilishi lozim deb o'ylayman:

– O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bosqichlarini o'rganib, ayni paytdagi holatini izohlash va sohaning zaif tomonlarini ilmiy-amaliy asosda tushuntirib berish;

– O'zbekistonda “turistik jozibador joy”, “turistik maskan”, va “turistik manzil” ilmiy tushunchalarining asl mohiyatiga nazariy aniqlik kiritib, o'zaro taqqoslab, turistik manzillarning mavjudligi, turistik o'lkaning jozibadorligini va turizm samaradodligini oshirish imkoniyatlarini nazariy asoslash;

– O'zbekiston zamonaviy turizm turlari xalqaro bozorda turistik hududlar bilan munosib raqobat olib boradigan, turistik oqimning barqarorligini ta'minlashga qodir bo'lgan va undan samarali foydalanadigan, turistik sifatni kafolatlovchi nufuzga ega bo'lishga erisha oladigan milliy turistik taklif tizimlarini shakllantirish.

**Kurs ishining hajmi.** Kurs ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib – 52 betdan iborat. Kurs ishida 5 ta jadval, 2 ta rasm, 2 ta diagramma keltirilgan.

Biz o’z ishimizni bu sohaga tayangan holda mustaqillik yillarida mamlakatimizning boy tarixiy, madaniy, ijodkorlik va yaratuvchilik merosi, tabiatimizdagi tabiiy-tarixiy ko‘rinishlar, xalqlarimizning o‘tmish madaniyatini, hayotini aks ettirgan bitiklar, hunarmandchilik ijodlari kabi ishlab chiqish sohalarini ham ichki va xalqaro turistik resurslarga aylantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Respublikamizda turizmning keng qamrovli va salohiyatli turlari bilan birga – nazarimizda, kichik, noananaviy bo‘lib ko‘ringan resurslaridan ham turizmda muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatlari beqiyos darajada samaralidir.

## **I BOB. SAYOHAT MAQSADLARI VA TURIZM TURLARINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Turistlarning sayohat maqsadlari**

Sayohat va turizm (travel and tourism) - bir - biri bilan o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, ular inson hayoti faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi. Bu - dam olish, aktiv (faol) yoki passiv (nofaol) ko`ngilocharlik, sport, atrof - muhitni anglash, savdo, fan, davolanish va boshqa ko`plab narsalarni qamrab oladi. Biroq, bunda har safar sayohatni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turuvchi o`ziga xos harakat - insonning vaqtinchalik boshqa joyga, mamlakatga, qit'aga borishi, uning doimiy yashash joyidan uzoqlashishi - mavjud bo`ladi. Shuni aytish mumkinki, turizm-sayohatning yangi turi, uning alohida hodisasi. Turizm aniq ifodolovchi tavsif va xususiyatga ega. Sayohatning turizmdan asosiy farqi- bu aniq maqsadning mavjudligi.

Maqsad - bu muddao, murod ya`ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko`zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o`z orzularni ushalishiga yo`naltiradi. Har bir sayohat yoki tur zamirida unga sabab bo`luvchi asosiy maqsad yotadi. Bu maqsadning yo`qotilishi yoki unga erisha olmaslik ushbu sayohatni turizm tarkibiga kiritmaslikka asos bo`ladi yoki turist qoniqish olmaydi. Shunday qilib, har qanday sayohat yoki turistik safardan asosiy maqsad bor bo`lib, unga ko`ra bu sayohatdan turizmnинг biror turiga mansubligi aniqlanadi, turist va uning turi statistikaning u yoki bu turiga kiritiladi, unga turli xil imtiyozlar beriladi. Sayohatdan eng umumiyligi maqsadlar dam olish, ko`ngil ocharlik, davolanish, mehmonorchilik, sport, din va ishbilarmonlik hisoblanadi. Aniq belgilanmagan maqsadlarning barchasi ham bir xil imtiyozlardan foydalanadi. Masalan O`zbekiston Respublikasiga kelayotgan sayyoohlar asosan qaysi maqsadlarga ko`ra tashrif buyurayotganliklari quyida keltirilgan jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Sayyoohlarning O'zbekistonga tashrif buyurishdan asosiy maqsadlari.									
	Ish yuzasi dan	O'qish, o'rgani sh	Ish	Savdo -sotiq	Dam olish, ta'til, bo'sh vaqt	Qarindosh larga tashrif buyurish	Sog'lom-lashtirish	Diniy, ziyo-rat maqsa dida	Bosh qalar
Jami	87	45	4	75	1422	200	340	391	126
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Kiruvchi turizm	43	7	1	21	264	76	9	8	26
Chiquvchi turizm	25	25	0	25	152	45	14	149	15
Ichki turizm	19	13	3	39	1006	79	317	234	85
Rezident	44	38	3	54	1158	124	331	383	100
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Chiquvchi turizm	25	25	0	25	152	45	14	149	15
Ichki turizm	19	13	3	29	1006	79	317	234	85
Resident bo'lмаган	43	7	1	21	264	76	9	8	26
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Kiruvchi turizm	43	7	1	21	264	76	9	8	26

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlar bo'yicha davlat qo'mitasi.

Ushbu ma'lumotlar 2011 yilning 4-iyunidan to 1-iyulgacha bo'lgan vaqt oralig'ida O'zbekistonga kiruvchi turizmda chet ellik fuqorolar – 455 kishi, chiquvchi turizmda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari – 450 kishi, ichki turizmda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari – 1785 kishi anketa so'rovlarida qatnashdi va tahlil natijalariga asoslanib tuzildi.

Turizm birinchi navbatda turistlarning dam olishi va davolanishini ko`zlaydi. Bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tejamkor xo`jayin xodimining (umuman olganda jamiyat a'zosi, mamlakat fuqarosining) mehnatini qadrlaydi, sog`lom bo`lishi va jamiyat uchun foyda keltiruvchi shaxsga aylantirishni istaydi. Sog`lom bo`lmagan fuqarolar samarali ishlay olmaydi. Ular soliqlarni samarali to`lay olmasligi va hazina to`ldirishga hissa qo`sha olmasligi mumkin. Demak, insonlarga dam olish, jismoniy va ma'naviy kuch to`plash imkonini berish lozim.

O`zini hurmat qilgan davlat fuqarolari sog`lig`i haqida g`amxurlik qiladi va tegishli sharoitlarni yaratadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqtি va haq to`lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi (38 - modda); har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy taminot olish huquqiga ega (39 - modda); har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (40 - modda), - deyiladi.

Shunga o`xshash qonun va qoidalar aksariyat davlatlarning bosh qomuslarida, shuningdek, xalqaro kelishuv va Konventsiyalarda ham belgilab qo`yilgan. Masalan, «Turizm xartiyasi»da (1985 y. JTT) : har bir shaxsning dam olish huquqi, jumladan, cheklangan ish vaqtি va pul to`lanuvchi mehnat ta'ili, shuningdek, qonunda belgilab qo`yilganlardan tashqari barcha hollarda hech qanday cheklovsiz erkin harakatlanish huquqi butun jahonda tan olinadi, - deb belgilab qo`yilgan.

Har bir davlat o`z tabiiy va boshqa turdagи resurslariga egalik qiladi va ulardan oqilona foydalanadi. Turli mamlakatlar iqtisodiyotida foydalaniluvchi turli xil foydali qazilmalar hamda tirik resurslar mavjud.

Tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy resurslar turizmda asosiy ob'ektlar hisoblanadi. Toza ob - havoli joyda ekoturizm, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda tarixiy turizmni rivojlantirish uchun turistik resurslardan maqsadli foydalanish lozim.

Turizm davlatlarning ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalariga sezilarli ta'sir ko`rsatadi. Xalqaro aloqalarga hamda alohida shaxslar va butun jamiyatning orzu - umidlarini hurmat qilish vaadolatga asoslangan tinchlikparvarlik doirasida, turizm insonlarning bir - birini o`rganishi va tushunishining ijobjiy va doimiy omili, shuningdek, xalqlar o`rtasidagi hurmat va ishonchning yanada yuqori darajasiga erishishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Zamonaviy turizm mehnatkashlarga haq to`lanadigan yillik ta'til berilishini nazarda tutuvchi ijtimoiy siyosatning mahsuli sifatida yuzaga keldi, bu esa ayni


paytda dam olishga bo`lgan huquqning e'tirofi hamdir. Turizm ijtimoiy tenglik, kishilar va xalqlar o`rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Uning madaniy va ma'naviy mazmun - mohiyati ulkandir. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma'lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo`lib, xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlaridan bahramand bo`lish imkonini beradi. Amalda turizmnинг ma'naviy mohiyati iqtisodiy va moddiy mezonlardan ustun bo`lishi va inson shaxsining har tomonlama uyg`un kamol topishiga yordam berishi, ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishi, turmush tarzi va hayotini belgilashida teng huquqni ta'minlashi lozim. Bu jarayonni esa uning qadri va shaxsini hurmat qilish, xalqlarning o`ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini tan olish,- deb bilish darkor.

Shunday qilib, tarixiy, madaniy va diniy qadamjolarni har qanday vaziyatlarda, ayniqsa ziddiyatlar vujudga kelganda himoya qilish davlatlar va jahon hamjamiyatining eng muhim vazifalaridan biri bo`lmog`i lozim.

Amalda yuqorida keltirilgan maqsadlar o`zaro qo`shilib, bir - birini to`ldirishi mumkin. Chunonchi, Iso payg`ambar tavalludiga bag`ishlangan yubiley tantanalari ko`p maqsadlarni ko`zlagan. Ularning eng muhimi - konfessiya tantanasi va uning doirasida o`tkazilgan bayramdir. Bu albatta, umuman olganda dinning juda kuchli targ`ibotidir. Keyingi maqsadlar esa soddaroq. Tantanalar barcha qadamjolar, birinchi galda, xristianlar (hech bo`limganda, katoliklar) dunyosi poytaxti bo`lmish Rim va ushbu dindagilar tomonidan "Muqaddas Yer", - deb tan olingan tomon ko`plab ziyyoratchilar oqimini keltirib chiqarishi kerak bo`lgan. Buning uchun esa Vatikan tantanalar va turli martabadagi ziyyoratchilarni qabul qilish maqsadida Rimni obodonlashtirishga katta mablag` ajratdi. Har yili Italiyaga, xususan, Rimga millionlab turistlarning ziyyarat uchun yoki diniy, madaniy - tarixiy maqsadlarni ko`zlab kelishlari kutiladi.

Turizm maqsadlari ijtimoiy axloq va tartib talablariga javob berishi kerak. Bu toifalarни tushunish qiyin, chunki, ko`plab davlatlar qonunchiligidagi adolat bilan aytganda bunday kategoriylar yo`q. Ammo, xalqaro huquq va rivojlangan davlatlar qonunchiligidagi "yaxshi tartib", "aqli kishi", "oqilona miqdor", "oqilona

foyda"; "ijtimoiy ahloq" kabi tushunchalar mavjud va tushunarli bo`lishi bilan birga, ular huquq me'yorlarida muayyan o`rin ham tutadi.



Manba: <http://desticcorp.typepad.com>

Turizm - aksariyat davlatlar iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi bo`lib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to`liq ishlashi, xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta'minlaydi. Shu bois, ko`plab mamlakatlar turizm soxasiga katta e'tibor bilan qaraydilar. Masalan, Fransiyada hukumat yig`ilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning o`ng tomonidan joy oladi. Fransiyaning Yevropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrini turizm hisobiga yashab, 'Turistik Makka' - deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzigelik holdir. Meksika prezidenti esa yirik xalqaro turistik ko`rgazmalarni shaxsan o`zi ochib beradi. Bunday misollarni yana ko`plab davom ettirish mumkin. Bu esa turizmning naqadar ahamiyatli soha ekanligini anglatadi.

## **1.2. Turizmning turlari va ko'rinishlari**

Turizmdagi turlarni va ko'rinishlarni tasniflashdagi chalkashliklar ham turizmdagi turlarga, turistlar sonini, harakatlanishini, xizmatlar turini ham aralashtirish, turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning qaysilari muhimrog'u, qaysi turlar o'z salohiyati bo'yicha keyinroq turadi, ajratish mushkul.

M.N.Pardayev, R.Atabayev (2007 yil) keltirgan ma'lumotlarida

**Turizm turlari asosan quyidagi belgilari bo'yicha** tasniflanadi. Bularga:

- turizm turlarini tashkil etish bo'yicha;
- xizmat ko'rsatishi bo'yicha;
- maqsadi bo'yicha;
- foydaliligi bo'yicha kabi belgilar kiradi.

Turizmni tashkil etilishi bo'yicha tasniflansa u ikki guruhga bo'linadi: rejali tashkil qilingan, rejasiz o'zboshimcha harakat qiladigan.

**Rejali tashkil qilingan turizmga** davlat tomonidan qonunlar yoki boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadigan odamlarning harakati tushuniladi. Bu faoliyatni davlat va nodavlat turistik tashkilotlari, turli firma va kompaniyalar amalga oshirishi mumkin. O'zbekistondagi turizmning asosiy qismi rejali tashkil qilingan turizmga kiradi.

**Rejasiz o'zboshimcha harakat qilingan turizmga** o'z ixtiyorini bilan mustaqil tashkil qilingan odamlarning harakat turi kiradi. Bu asosan ko'ngilli turistik jamiyatlar, ittifoqlar va jismoniy shaxslar tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Turizmning ushbu turi orqali tog'u-toshlarga sayohat, turistik yurish, musobaqalar uyuştirish, boshqa hudud va mamlakatlarni ko'rib tomosha qilib kelish uchun borish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. Bu jarayon ham turli turistik birlashmalarning mamlakat qonunlariga va xalqaro me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda turizmni tashkil qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar

tegishli ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishlari lozim. Bu masala «O'zbekturizm» tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi va shu tashkilot muvofiqlashtirib beradi.

**Turizm xizmat ko'rsatishi bo'yicha** uch guruhga bo'linadi: ichki turizm, milliy turizm va xalqaro turizm.

**Ichki turizm** bir mamlakat ichida odamlarning bir hududdan ikkinchi hududga dam olish, davolanish, sport bilan shug'ullanish, atrof-muhitni o'rghanish kabi maqsadlarda qisqa muddatli harakatidir.

Ichki turizm bir mamlakat ichida bo'lganligi tufayli u umumiyligi iqtisodiyotga ta'siri kam bo'ladi. Ammo bir hudud hisobidan ikkinchi, turistlarni qabul qiluvchi hudud iqtisodiy samara, manfaat olishi mumkin.

**Milliy turizm** ham turistik faoliyat majmuasi bulib, u ichki turizm va tashqi mamlakatlardan kelgan touristlarga xizmat ko'rsatish sohasini tulik qamrab oladi. O'zbekistonda milliy turizm davlat va nodavlat tashkilotlaridan tarkib topgan bo'lib, uni «O'zbekturizm» tashkiloti muvofiqlashtirib turadi.

**Xalqaro turizm** eng nufuzli turistik harakat bulib, bir mamlakatga boshqa mamlakatdan kelgan touristlarni qabul qilish va boshqa mamlakatlarga turistik xizmat ko'rsatishdir. Juda ko'p mamlakatlarda xalqaro turizm iqtisodiyotning muhim sohasi sifatida katta foyda keltiruvchi faoliyat hisoblanadi. Bu holatdan kelib chiqiladigan bo'lsa, O'zbekiston ham juda katta turistik salohiyatga ega ekanligini inobatga olish va uni yirik foyda keltiradigan soha deb qarash lozim.

**Turizm maqsadi bo'yicha** quyidagi turlarga bo'linadi:

- salomatlikni tiklash;
- dam olish;
- sport musobaqalariga qatnashish yoki sport mashg'ulotlarini o'tkazish;
- ilmiy va ma'rifiy ekspeditsiya;
- atrof-muhitni, diqqatga sazovar turistik ob'ektlarni o'rghanish;
- ziyorat qilish kabilari.

**Turizm foydaliligi bo'yicha** ikki guruhga bo'linadi: iqtisodiy samarali turizm va ijtimoiy samara beradigan turizm.

**Iqtisodiy samarali turizmga** shunday turizm kirdiki, u turistlarni qabul qiluvchi mamlakat bo'lib, ularga xizmat qilish orqali ularning daromadlarini ta'minlaydi. Aynan turizmnинг shu jihatи uning iqtisodiy soha ekanligidan, foyda keltiruvchi faoliyatligidan dalolat beradi. Qaysi hudud yoki mamlakatda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa o'shalar uning turistik salohiyatini belgilaydi. Turizmdan foyda qilaman degan davlat, kompaniya yoki shaxslar aynan ana shu salohiyatdan samarali foydalanish choralarini ko'rishi lozim.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston, ayniqsa Samarkand, Buxoro, Xiva shaharlari misilsiz turistik imkoniyatlarga ega. Agar ushbu sohani tez rivojlantirilsa aholining ko'p qismi ishga joylashadi, daromadi oshadi. Shu tufayli turizm industriyasini rivojlantirish O'zbekistonda eng ustuvor sohalardan biriga aylanmog'i lozim.

**Ijtimoiy samara beradigan turizm** ham boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham rivojlangan. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlamin, ya'ni maktab o'quvchilarini, pensionerlarni, talaba-yoshlarni, nogironlarni, keksa nuroniylarni, urush va mehnat faxriylari kabi aholining shunday toifasini sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhim ushbu sohaga qo'yilgan investitsiya foyda olish uchun emas, balki ijtimoiy qullab-quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bu maqsad uchun mablag' davlat byudjeti, davlat tashkilotlari va turli nodavlat jamg'armalar va shaxslar (jismoniy, yuridik) ajratmalar hisobidan shakllanadi.

Butunjahon turizm tashkiloti (VTO) esa – turizmnинг beshta turini istiqbolli yo'nalish deb e'lon qilgan.

### **1. Sarguzasht turizmi.**

Bu tur asosan tog‘ cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va «erning oxiri»ga sayohat yo'nalishlarida rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu turni tog‘ so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

### **2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi.**

### **3. Madaniyatni o'rganish turizmi.**

- a) diniy ziyoratgoh turizmi;

b) Madaniy-tarixiy turizm.

#### **4. Ekoturizm.**

#### **5. Mavzuli turizm.**

- a) iqlimni o‘rganish;
- b) hayvonot olamini o‘rganish;
- v) o‘simlik dunyosini o‘rganish;
- g) paleontologiyani o‘rganish.

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasi o‘qtuvchisi I.S.Tuxliyev keltirgan ma’lumotlariga ko’ra, turizm turlarni o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Jumladan, geografik belgilari, turistlik oqim yo‘nalishi, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistilarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo‘yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvafiqdir.

2-jadval

<b>No</b>	<b>Tasniflanadigan belgilar</b>	<b>Turizm turlari</b>
1	Geografik prinsip bo‘yicha	1.1 Milliy 1.2 Xalqaro 1.3 Ichki
2	Turistlik oqimlar yo‘nalishi bo‘yicha	2.1. Kiruvchi 2.2. Chiquvchi
3	Maqsadlar bo‘yicha	3.1. Rekreatsion 3.2. Sog‘lomlashuvchi dam olish 3.3. Bilimini oshiradigan dam olish 3.4. Malakaviy ish turizmi 3.5. Ilmiy turizm 3.6. Sport turizmi

		<p>3.7. Shop-turlar</p> <p>3.8. Sarguzashtli</p> <p>3.9. Ziyorat (haj) safari</p> <p>3.10. Qo‘msash</p> <p>3.11. Ekoturizm</p> <p>3.12. Ekzotik</p>
4	Moliyalashtirish manbai bo‘yicha	<p>4.1. Sotsial turizm</p> <p>4.2. Tijoriy turizm</p>
5	Harakatlanish usuli bo‘yicha	<p>5.1. Yayov</p> <p>5.2. Aviatransport</p> <p>5.3. Dengiz transporti</p> <p>5.4. Daryo transporti</p> <p>5.5. Avtoturizm</p> <p>5.6. Temir yo‘l transporti</p> <p>5.7. Velosiped transporti</p> <p>5.8. Ulovlarda</p> <p>5.9. Aralash</p>
6	Joylashuv vositalari bo‘yicha	<p>6.1. Otellarga, mehmonxonalarga</p> <p>6.2. Motellarga</p> <p>6.3. Pansionatlarga</p> <p>6.4. Kempinglarga</p> <p>6.5. Palatkalarga</p> <p>6.6. Rotellarga</p> <p>6.7. Botellarga</p> <p>6.8. Sanatoriylarga</p>

		6.9. Flotellarga 6.10. Xostellarga 6.11. Otel-klublarga 6.12. Turbazalarga 6.13. Turistlik uylarga 6.14. Appartomentlar
7	Ishtirok etuvchilar soni bo‘yicha	7.1. Individual 7.2. Oilaviy 7.3. Guruhlar bo‘lib
8	Tashkiliy shakllari bo‘yicha	8.1. Tashkil qilingan 8.2. Tashkil qilinmagan

Boshqa adabiyotlarda turizm turlari va ko’rinishlari haqidagi ma’lumotlar quyidagicha berilgan. Turizm aktiv va passiv turlarga bo‘linadi. Turizmning bunday nomlar bilan bo`linishining asosiy sababi, odamning turizm jarayonida harakatlanishi va jadalligi turlarini aniqlash bilan belgilanadi. Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga ham to`g`ri keladigan turizmning aktiv (faol) turlariga - dam olish va sayyohat vaqtichog`lik, sport kabilar kiradi. Bu ma'noda yana ham ajralib turadigani - bu ekstremal turizm turidir. Turizmning passiv (nofaol) turiga esa - turizm dasturi yoki turistik sayyoqlikning tinchroq va kam kuch surf qilinadigan, jismoniy zo`riqishlarga xos bo`lmagan turi kiradi. Ular bir maromda dam olishga moslashgan shaxslarga mo`ljallangan o`rganish turizmi bo`lib, turistlardan jismoniy kuch va zo`riqish talab etilmaydi. Bu dengizda, tog`da, suvda davolovchi xarakterdagi sog`lomlashtirish turizmidir. Masalan, kurortlarni shular qatoriga kiritish mumkin. Shunday turdagи sayyoqlik - farzandli oilalarga, katta yoshdagi turistlarga va pensionerlarga tegishlidir. Passiv turizmda turistlar bosh kiyim tikish, savatlar to`qish, shuningdek, xo`jalik ishlarini yuritish, oshxona hamda bog`bonchilik ishlari bilan shug`ullanishni ham o`rganadilar.

Buyuk Britaniyada qayiq bilan kanallarda suzish turizmi keng tarqalgan. Shunga o`xhash ko`llardagi turizmda ham turistlar nafaqat o`zlari eshkak eshishadilar, balki, qayiqlarni sudrab o`tishadilar, chodirlarini o`rnatadilar. Bunda jismoniy zo`riqish talab etiladi. Mavjud ingliz turizmida qayiqlarni daryo bo`ylab otlar sudraydilar, turistlar esa qulay va shinam qishloq otellarida tunashadi.

Aktiv (faol) turizmga har - xil sarguzashtli turizmlarni ham kiritish mumkin:

- Sarguzashtli turizm deganda - ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytiladi. Odatda bu - ekzotik va ekologik jihatdan toza tabiiy rezervatsiyalarga noananaviy transport vositalari bilan bog`liq bo`lgan, bir qolipga tushmagan turizmdir. Ba'zi holatlarda, bu xildagi turizm jiddiy jismoniy zo`riqishlar bilan bog`liq bo`ladi, insondan bilim va dovyuraklikni talab qiladi. Masalan, Koloradaning toshqin daryolarida damlanma qayiqlarning oqizilishi, qish faslida itlar tortadigan chanalar qishqi turizmi, tog` - chang`i kurortlaridagi dam olish va boshqalar shular jumlasidandir. Ularda qatnashish uchun qatnashchilar oldindan ma'lum ustalikka va jismoniy tayyorgarlikka ega bo`lishlari kerak. Bu xildagi turizm sport turizmiga yaqin hisoblanadi, unda yo`llar yaxshi tayyorlangan, yo`l ko`rsatuvchi yordamida xavf minimum darajaga tushirilgan, turistlar maxsus asbob - anjomlar bilan ta'minlangan bo`lishlari lozim. Aktiv (faol) turizmga: falokatlar sodir bo`lgan joylarga - zilzilalar, suv toshqinlari, vulqonlarning otilishi, texnogen halokatlari (masalan, vertolyotdan Chernobil AES ni tomosha qilishlar) va ekstremal hodisalar (masalan, o`lim jazosini tomosha qilishlar va h. k.kiradi.) Yevropadagi ba'zi odamlar qamoqlarda o`tirgan kishilar kameralariga kirib, 1 - 3 kun davomida jinoyatchilar boshidan kechirgan kechinmalarni xayolan boshlaridan o`tkazishni xush ko`radilar. Bu turistlarga kuniga 120 dollarga to`g`ri keladi. Sarguzashtli turizmda qilinadigan sug`urta qimmatga tushishi mumkin.

Xarakatlarning turlariga bog`liq bo`lgan turizmni quyidagi turlarga ajratib o`rganish mumkin:

- Piyoda yurish yoki sayr qilish turizmi. Bunda hayvonlar bilan harakatlanadigai marshrutlar - fil, tuya, eshak, ot, qo`tos, itlarda amalga oshiriladi.

Odatda yo`nalishning uzunligi 2 - 6 km.dan hattoki 20 - 50 km.gacha cho`zilishi mumkin. Ot turizmi marshruti g`oyat keng tarqalgan. Qatnashchilar texnika vositalari bilan borish qiyin bo`lgan tabiatning diqqatga sazovor joylariga ana shu vositalar yordamida borishlari mumkin.

- Temir yo`l marshruti turizmi. Bunda turistlar safar davomida ko`pgina joy va rayonlar bilan tanishadilar, vagonlarning juda qulay kup'elarida yashaydilar, ko`chib yuruvchi restoranlarda ovqatlanadilar. Xarakatlanishning asosiy qismi kechasi amalga oshiriladi, kunduzi esa turizm dasturida ko`zda tutilgan asosiy diqqatga sazovor joylarni, muzeylarni va bohka ob'ektlarni ziyorat qilishadilar. Ba'zi turizm turlarining davomiyligi 14 va undan ko`p kunga cho`ziladi. AQSh, Kanada, JAR, Argentinaning chiroyli bog`lari bo`ylab eski tarixiy poezdlarda sayr qilish, Rossiyada katta shaharlar bo`ylab temir yo`l turizmi marshruti keng tarqalgan (Sankt - Peterburg - Novgorod - Pskov - Moskva yoki Sankt - Peterburg - Omsk - Irkutsk). Turizm poezdi tarkibiga yotoq vagonlaridan tashqari vagon - restoran, vagon - klub, vagon - dushlar kiradi. O`zbekistonda ham (Toshkent - Samarkand - Buxoro - Xiva - Toshkent yo`nalishi bo`yicha) mazkur turizm yo`lga qo`yilgan.

- Avtobusli marshrutlar. Bunda turistlar mamlakatlarni magistrallar bo`ylab bir punktdan ikkinchi punktgaga harakatlanib kesib o`tadilar. Umuman turistlar avtobuslarda juda oz uxlaydilar, asosan uxmlash uchun qimmat bo`lmagan mehmonxona yoki motellar ko`zda tutiladi, ammo maxsus yotoq avtobuslari ham mavjud.

Shaxsiy yoki ijaradagi avtomobilarda, shuningdek, mashinasidan ajralmagan holda sayr qiladigan turistlar qatlami ham mavjud. Ular bir qancha tranzit vizalar olib, murakkab marshrutlar bo`ylab qator mamlakatlarni kesib o`tishadi, ayrim vaqtarda ular mashinalari orqasida ko`chib yuruvchi uylarni sudrab yuradilar, unda taom tayyorlashadilar, ovqatlanishadilar va tunashadilar. Bunday turistlar uchun maxsus avtokempinglar va karvonlar uchun to`xtash joylari o`rnataladi. Sportga yo`naltirilgan turizmda murakkab turistik marshrutlar va musobaqalar yuushtiriladi. Masalan, tgorhu - avtomobillaridagi eng og`ir turizmdir. Yorqin

misol bo`lib Samel Trophu safari xizmat qiladi. Self drive toug - turizm, bunda turist avtomobilni ijaraga olishi yoki kelishilgan marshrut bo`yicha o`zining shaxsiy mashinasida harakatlanishi mumkin. Turistik agentlik kempinglarda stoyankalar, otellar, oziq - ovqatlar buyuradilar, haritalar etkazib beradilar, bir qancha qulay va qiziqarli safar marshrutlarini taklif etadilar, transport sug`urtalarini rasmiylashtiradilar.

- Suv turizmi marshruti. Bunda qayiqlarning har - xil turlarida, yaxtalarda yoki boshqalarda suzishlarni o`z ichiga oladi.

- Havo orqali tashish. Tashishning kattagina qismini havo orqali tashishlar tashkil etib, ular uzoq masofalarga tashishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bundan tashqari qit'alararo, okeanlar orqali tashishlar ham kiradi. Yo`lovchilarni tashishga mo`ljallangan yuqori tezlikka ega va xavfsiz havo laynerlarining yaratilishi bilan turistlarni qit'alararo tashish birdaniga oshib ketdi. Turistlarni tashishda qatnovli marshrutlar bilan bir qatorda charter yo`nalishlari ham ishlatiladi. Tashish tizimida mahalliy aviatsiyaning ham roli katta, unda mamlakat ichidagi ko`pgina marshrutlar va uzoq masofaga cho`zilgan hududlarda turistlarni samolyotlarda tashish ko`zda tutiladi. Shunday qilib, Janubiy Afrika turizmining asosiy qismi havo yo`llarida tashishni ko`zda tutadi. AQSh havo xabarları yetkazish sohasida oldingi o`rinlarda turadi. 1997 - yili AQSh havo yo`llari tomonidan 599 mln. yo`lovchilar tashildi. 2007 - yilga borib bu ko`rsatkich 900 mln. yo`lovchiga yetadi. Turistlarni tashishda kichik aviatsiya ham faol qatnashmokda, ayniqsa turistlarni tabiat qo`yniga texnik vositalar etib borishi qiyin bo`lgan joyga etkazishda bular qo`l keladi. Shu bois, ko`pgina turizm safarlari turli - xil transport vositalaridan foydalanishni ko`zda tutadi. Turistlarni uzoq masofalarga tashishda ko`pincha havo transportlaridan foydalaniladi. Turistlar uzoq masofadagi dam olish joylariga borishda vaqtini minimallashtirishga harakat qiladilar va samolyot bu borada harakatning operativ vositasi bo`lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda safar variantlari o`z ichiga kombinatsiyalashgan turlarini oladi. Ta'til davrida o`z mashinalaridan ajrala olmaydigan Britaniyaliklar Yevropa bo`ylab safarni davom ettiradilar, lekin Yevropa mamlakatlarida

harakatlanish o`ng tomonlama, ammo Buyuk Britaniyada esa chap tomonlama, shuning uchun boshqarish odatini o`zgartirish qiyin, ko`cha halokatlari va tushunmovchiliklardan ochish maqsadida avtomashinalarni temir yo`l platformalarida transportirovka qilish usulidan foydalaniladi. Dastlab La Mansh bo`g`ozidan turizm avtomashinasi dengiz solida olib o`tiladi, so`ngra temir yo`l platformalariga yuklab belgilangan manzilga etkaziladi. Turistlarning o`zlari shu poezdning yotoq kup'elariga joylashadilar. Avtomashinalarni joyida ijaraga olish ham keng tarqalgan. Xizmatning shunday turistik paketlari mavjudki, ular samolyotlarda tashish va avtomashinalarni aeroportning o`zida ijaraga berishni o`z ichiga oladi, avtomobilarni ijaraga berish ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Rossiyada ham avtomobilarni ijaraga berish firmalari mavjud, ammo ular faqat xorijiy turistlarga beradilar. Afsuski, respublikamizda bunday ishlar hali ko`ngildagidek emas. Qaysi vositalar orqali turistlarni tashish eng qulayligini turizm safarlari predmeti va maqsadlarining iqtisodiyoti echadi. Umuman, turistlar uchun vaqt muhim ahamiyatga ega va turizmda turistlarni tashish sayyoqlikning yordamchi elementi bo`lib hisoblanadi. Bu o`rinda, 1000 kmdan ortiqroq masofalarga havo yo`llarida tashish qulaydir, bundan tashqari havo yo`llaridan foydalanish katta suv xavzalarini kesib o`tishda ham qulaydir. 300 kmdan 1000 kmgacha bo`lgan masofalarda temir yo`lidan, asosan tez yurar liniyalardan faol ravishda foydalaniladi. Qisqa masofalarda esa avtomobil transportidan foydalanish qulaydir. Ba'zi hollarda daryo va dengiz transportlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maxsus marshrutlar ham borki, unda harakatlanish usuli turizm marshrutining asosini tashkil etadi. Masalan, kruiz marshrutlari, avtobus va temir yo`l turizmi, - bunga misol.

Turizmning xilma - xilligi uning bosh maqsadiga bog`liq holda quyidagi ko`rinishlarga ajratiladi: 1. Dam olish, rohatlanish va ko`ngil ochish maqsadidagi turizm. Bunday turizm sayyoqlikning keng tarqalgan turidir; 2. Dam olish va sog`lomlashtirish maqsadidagi turizm. Sog`lomlashtirish va davolash maqsadlarida qilinadigan turizm - sanatoriylar, sog`lomlashtiruvchi - davolovchi tashkilotlar, kurortlarda, shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar yordamida

(shifobaxsh mineral suvli kurortlarda) olib boriladi. Turistik prospektlarda maxsuslashtirilgan sog`lomlashtirish maqsadlariga qarab, kempinglarda mineral suvlarni ichish yoki mineralli va servodorodli vannalar qabul qilish imkoniyatlarini belgilaydilar. Kavkaz mineral suvlari dunyoga mashhurdir. Respublikamizda ham mineral suvli davolanish maskanlari ko`p. Tabiiy - iqlim sharoitlaridan har doim ham davolash va sog`lomlashtirish maqsadlarida samarali foydalaniladi. Masalan, davolash loylari, mineral suvlar va buloqlar, toza va quruq yoki buning aksi bo`lgan dengiz havosi. Bunday kurortlardagi otellarda vrachlar, davolash va sog`lomlashtirish protseduralari, massajistlar va boshqalar xizmati ko`rsatiladi. Ammo, kurort tanlash va davolash muassasalarini tanlashda vrach maslahatlari va ko`rsatmalari orqali amalga oshirilishi kerak.

**Ko`ngilocharlik turizmi** dasturlari ma'lum ma'noda turistlar uchun qo`shimcha xizmat ko`rsatishga yo`naltirilgan. Turistning yaxshi ko`ngil ochishi uchun turizmning ko`plab ko`shimcha xizmatlari orqali yordam beriladi. Bu faol o`yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilish, attraktsionlarga borish (tematik bog`lar, masalan, disneylend, delfi kari, zooparklar), restoranlar, dingsinglar, diskoklublar, magazinlar, kazino va boshqalar. Xorij mutaxassislarining fikricha, turizm amaliyotida 110 dan ortiq keng qo`llaniladigan ko`ngilocharliklar bo`lib, bu ko`ngilocharlik sarf- harajatlarining maxsus statistikasi mayjud ekan.

**Tanishtiruvchi, reklama safari.** Marshrutni qaytadan bat afsil ishslash va uning shartlari bilan tanishish uchun reklamali sayohatlarga asosan turliderlar va turoperatorlar yoki turistik agentliklar ishchilarini borishadilar. Ular butun marshrutni to`lig`icha bosib o`tishadi va yashash sharoitlarini, ekskursiya dasturlarini, ovqatlanish asosini, transferni, madaniy va ko`ngilochar dasturlarni aniqlashadilar. Ular mahalliy sharoitlar, udumlar, meditsina va sug`urta xizmatlari, jinoiy holatlar va boshqa kritik holatlarda davlat organlari bilan birgalikda olib boriladigan ishlar haqida to`liq ma'lumotlar bilan ta'minlanadilar. Qoida bo`yicha tanishtiruvchi turizmga ma'lum chegirmalar beriladi yoki bunday turizm to`laligicha qatnashuvchi kompaniya tomonidan to`lanadi. Ba'zi mamlakatlar,

masalan, Isroil qabul qilish bo`yicha turistik faoliyatni faol qo`llab - quvvatlab, tanishtirish bilan bog`liq safarlarni davlat byudjetidan dotatsiyalaydi.

**O`rganuvchi turizm** - turizm markazlariga biror narsani o`rganish uchun borishdan iborat. Bular dunyoga mashhur Nyu - York (har yili 32 mln turist bu erga o`rganish maqsadida borishadi), Parij, Madrid, Rim, Peterburg, Qohira, Singapur, Gongkong, Rio - de - Janero va shu kabi shaharlardir. Turistlarning qiziqish ob`ekti bo`lib qadimgi joylar, muzeylar, haykallar, shaharlarning chiroyli landshaftlari xizmat qiladi. Kichik shaharlar ham qiziqish markazida bo`lib, ularga quyidagi shaharlar - Granada (Ispaniya), Sarkskoe Selo (Rossiya) va boshqa alohida hududlar kiradi. Faqatgina Sankt - Peterburg viloyatining o`zida turizm ob`ektlariga kiradigan qadimiy obidalar va joylar 3900 tadan ortiq. Hozirda bu juda ulkan turizm imkoniyatlari to`la foydalanilmayotir (117 ming turistga mo`ljallangan mehmonxonalarining 30% idan foydalaniladi).

O`rganuvchi turizm asosini quyidagilar tashkil etadi: shahar va uning e'tiborga loyiq joylari, me'morchilik majmualari, diniy va madaniy yodgorliklari, ajoyib tabiat ob'ektlari va ko`rinishlarini tomosha qilish. Ushbu dasturlarning sermazmunligidan esa bo`sh vaqtarda do`konlarga borish yoki uning rastalaridagi mahsulotlarni tomosha qilish. Turistlarga, hududlar bo`ylab butun davlat bo`ylab har - xil iqlim sharoitlarini ko`rish, shuningdek, turli transport vositalari orqali sayohatlar aynilsa qiziqdir.

**Diniy - ziyorat turizmi.** Bular diniy maqsaddagi sayrlardan iborat bo`lib, uning ildizlari tarixga borib taqaladi. Bu kabi sayohatchilarning birinchilari o`rta asr ibodatchilaridir. Shu kabi sayrlar o`z diniga ishonch va o`zga dinlarga qiziqish asosida vujudga keladi. Dunyodagi ko`plab musulmonlar Makkai Mukarramaga va xristianlar esa Muqaddas er deb hisoblashadigan - Vatikanga, ibodatxonalar va boshqalarni ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi. Ziyorat kasallikdan qochiy, baxtsizlik, gunoxlarini yuvish uchun ham amalga oshiriladi. Marko Polo (XIII asr) hozirgi Shrilanka hududida shu kabi ziyoratlarni ko`rganini aytadi. XIU - XU asrlarda Angliya ziyoratchilari asosan Rim va Quddusga borganlar. U vaqtarda sayohatlar ancha qiyin kechgan: 1388 - yildan boshlab qirol Richard II buyrug`i


bilan inglizlar ziyorat uchun maxsus ruhsatnoma olishlari kerak bo`lgan. 11 yildan so`ng Richard II ingliz ziyoratchilari sayohat qilishi mumkin bo`lgan joylardagi portlarni qisqartirdi, ba'zi joylargagina ruhsat berildi. Boshqa erdan kelish uchun esa qirolning maxsus farmoni kerak edi. Ba'zi ziyoratchilar diniy zaruriyat bilan sayohat qilishsa, boshqa ko`pchilik bunga sayohat ishtiyoqi bilan yoki hayotiy turkilar, o`z hamroxlari bilan quvnoq muloqot qilish uchun kelishgan. Hozirda ham bir qancha qadamjolar bor. Ko`pchilik xristianlar Quddusga Iso Masih qabri ziyoratiga boradilar. Islomga e'tiqod qiluvchilar esa Makkai Mukarrammaga xaj va umra ziyoratiga boradilar.

### **1.3. Sayohatga bo'lган ehtiyojni tug'diruvchi omillar**

Sayohatga tayyorlanayotgan odamlarning motivlarini tushunish, sayohat tashkilotchilari, shu jumladan turfirmalar uchun muhim omil hisoblanadi. Masalan, biznes ishlari maqsadida sayohat qiluvchi ishbilarmonlarning servisga va mehmonxonalarga bo`lgan ehtiyoji dam olish va ko`ngil ochish maqsadida qiluvchi odamlarning talablari tubdan farq qiladi.

Ayni paytda odamlar o`zlarining mamlakati bo'ylab va xorijga turli sabablarga ko`ra sayohat qiladilar. Biroq ustunlikka ega bo`lgan sabablar mavjud bo`lib ularni asosiy sabab sifatida ajratish mumkin va aynan ularni sayohat motivlari deb ataydilar.


Sayohat qilish motivlari termini deganda, turistik maqsadida ma'lum joylarga kelishga undaydigan va ularning xohishlarini qondiradigan psixologik va jismoniy talablari tushuniladi.



**1-rasm.** Turist muomolasasi va motivlarning sabab va oqibat bog'lanishlari.

Krompton(1979)ning ta’rifiga ko’ra, turistning tavsifi “Kim, qachon, qayerda va qanday turizm” ijtimoiylik – iqtisodiylik bian bir qatorda ta’riflanadi, ammo turistik axloq qoidalaridagi eng qiziqarli savollardan biri “Nima uchun” degan savolga javob berilmaydi.

Turistik muomola qoidalarida o’sha paytda motivlar ko’pkina anglatuvchi va o’zgaruvchilardan biri sifatida aks etadi. Modomiki shunga qaramasdan, u barcha muomola qoidalarida juda keskin harakatlanuvchi kuch bilan namoyon bo’ladi. Motivlar sayohatni tanlashda insonlarning maqsadlari asosini shakllantiradi va o’z aksini topadi. Motivatsiyaning nazariy asoslari ichki psixologik omillarning protsesini (talab, niyat va maqsadlar) yaratadi, natijada ichki fiziologik aqliy va jismoniy zo’riqishlarning noqulaylik darajasi paydo bo’ladi va shulardan xalos bo’lishga yo’naltirilgan harakat va ularda mammunlik hissi ehtiyojini hosil qiladi. Motivlar, bunday harakatlarni taxmin qiladi, ehtiyojlarni hamda maqsadlarni anglashni talab etadi, bu ehtiyojlarni qondirishga va’da beradi, keyinchalik bu insonlarni boshqa joyga borish, xarid qilish istagini tug’diradi. Marketingning roli maqsad yoki maqsadlar mahsulot va xizmat ko’rinishda ko’rsatilishi, ehtiyojlar haqida axborot berish maqsadida yuksalishi va to’g’ri keladigan maqsadlarning qondirishidir.



**2-rasm.** Sayohat qilish motivlarning asosiy turlari.

Turizm tabiiy-iqlimi motivlari turistlar uchun favqulodda ahamiyatli hisoblanadi. Tabiiy-iqlimi xususiyatlar ma’lum turizm shakllarni barpo qilishda

jiddiy rol o'ynaydi (aynan dengiz, sport va tog' turizm). Turizmda dam olish, ko'ngil ochish va muhit sharoitini almashtirishni hohlovchi yirik shaharlar aholisi uchun tabiiy- iqlimiylar motivlar psixologik va biologik talablar tusiga ega bo'ladi, shuning uchun ham ularning ahamiyati jiddiy oshadi

Madaniy motivlar – odamlarning turli xil yodgorliklar, muzeylar, badiiy galereyalar, teatrlar va boshqa obyektlarni o'z ichiga olgan o'z mamlakatining madaniy meroslarini bilish istaklari hisoblanadi. Etnografik diqqatga sazovor hisoblanuvchi an'analar, kiyimlar, taomlar va xalq ijodiyotinig boshqa ko'rinishlar o'ziga xos qiziqishlarni tug'diradi.

Iqtisodiy omillar guruhiга turistik sayohatlarning ijyimoiy - iqtisodiy sharoithlari daxldordir. Bular tur mahsulotlar xaridolarnig daromadlari, turlar narxlari, turistlarni qabul qilib oladigan joylardagi mollar va xizmatlar, turistik infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hisoblanadi, shuningdek serviz sohalarining, transport tizimi, savdo sohalarining rivojlanganlik darajasi, shu bilan birga xorijiy turistlar uchun past narxlarda mollarni sotuvchi do'konlarning mavjudligi shular jumlasidandir. Iqtisodiy omillar arzon mollar assortimenitini shakllantirishda birinchi darajadagi rolni o'ynaydi va o'rta daromadni turistlar sonining ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik omillar turistlarning psixologik talablariga muvofiq, ularni sayohat qilishga undaydigan motivlarni o'z ichiga oladi. Ularga odamlarning diniy e'tiqodi, uning o'ziga xos ehtiyojlari va moilliklari, reklamaga bo'lgan munosabatlari va boshqalar daxldordir.

Tahlil shuni ko'rsatmoqda-ki iqtisodiy va sentimental motivlar mavjudligini mustasno qilgan holda, faqat ko'p bo'lмаган turistlarga avval kelgan joylariga keladilar. Daromadning oshishi bilan odam yangi turistik yo'nalishni tanlashda psixologik motivlarga o'z diqqatini qaratadi. Agar turistlarni sayohat qilishga undaydigan motivlarni ko'rib chiqsak, maqsadlar yetarli darajada ko'p bo'lishi mumkin. Biroq bir narsani tushunish lozimki, barcha sayohatlarda (faqat shu shart bilan uni turistik sayohat deb atash mumkin) bitta asosiy maqsad mavjud. Bu maqsad turist uchun ustuvor bo'lib va aynan unga erishish (yoki erishmaslik)

butun turistik sayohat samaradorligiga nisbatan qaror qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Aynan bitta asosiy, ustuvor maqsadning mavjudligi turizmni sayohatga nisbatan faoliyatning o'ziga xos turi sifatida xarakterlaydi.

Quyidagi sanab o'tilgan sayohat qilish motivlardan tashqari, o'ziga xos boshqa motivlar mavjud. Turistlarning o'zi boshqaradigan, aniq turistik regionga sayohat qilish motivlarini tushinish turistik mahsulotlar va xizmatlarni muvafaqiyatli o'sishi motivlarini tushunishga bog'liqdir. Sayohat qilishni tug'diruvchi motivlarni bilish, samarali turistik siyosat va turizm iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi.

## **II BOB. TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SAYOHAT TURLARINING AHAMIYATI**

### **2.1. Turizmning zamonaviy turlari**

Dunyo miqyosida turizmning eng yangi turlaridan biri ekologik turizm yoki ekoturizmdir. «Ekologik turizm» termini bиринчи маротаба 1980 йил меъсалик иqtisodchi G.Seballos – Laskureyn taklif qilgan. Ekoturizmning asosiy мақсади sayohat paytida yangi joylarni ko’rish, tabiat go’zalligidan, toza tog’ yoki o’rmon xalqlar havosidan барга олиш, «yovvoyi» tabiat bag’rida dam олиш, shuningdek, boshqa urf-odati, madaniyati, san’ati, tarixiy obidalarini ko’rishdan iborat.

Turizmning bu ko’rinishi Kanada, AQSh, G’arbiy Yevropa davlatlari, Markaziy va Janubiy Amerika, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda tez rivojlanmoqda.

Ekologik turizm ayniqsa Avstraliyada yaxshi rivojlangan bo’lib, bu soha bo’yicha maxsus dasturlar yaratilgan.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun obyektlar bo’lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog’lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog’lar;
- davolash - sog’lomlashdirish joylari va kurortlar;
- qo’riqxonalar.

Ekoturizmning muhim obyekti bo’lib, ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari hisoblanar ekan, mamlakatimiz bu resurs turlariga boy hisoblanadi. Respublikamizda tarixiy, arxeologik, arxitektura, san’at, musiqa va boshqa turistik resurslar mavjud. O’zbekistonning boshqa mamlakatlarda uchramaydigan ekzotik tabiat, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Hozirgi vaqtda **to’rt xil** ekoturizm turlari va ekoturlar mavjud.

**1. Ilmiy turizm.** Bunda turistlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiatda izlanish ishlarida ishtirok etadilar. Masalan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri Kolumbiyada, u yerdagi boy qushlar olamini o’rganish uchun

«Kolumbiya qushlari» degan ekoturlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan ornitologlar ham qatnashib ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda turistlar aktiv harakat usullari qo'llab, tabiiy go'zallikdan bahra oladilar. Ilmiy turizm chet elga 41 bo'lган ilmiy-tekshirish ekspedisiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

**2. Tabiat tarixini o'rganish turlari.** Bu atrof muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayyohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda takshil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenamentlari bor joylarda ham tashkil qilinishi mumkin. Bunga maktab o'quvchilarining poxodlari ham kirib, unda o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan joylarning tabiatini tarixi to'g'risida hikoya qilib beradi.

**3. Sarguzasht turizmi.** Bu tur turizm barcha aktiv harakatli turlarini o'zida jamlangan sayohatlarni o'z ichiga oladi, hamda tabiatda dam olish turlari ham bunga kirib ulardan maqsad yangi xissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, turistlarni jismoniy formasini yaxshilash va yangi sport muvoffaqitlarga erishishidir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog' va piyoda yurish turizmi, suv, chang'i va tog'-chang'i turizmi, otda yurish turizmi kiradi.

**4. Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS)** etish ekoturizmning asosiy turi hisoblanadi. Ekoturizm o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- mahalliy aholining o'z hududlarining ijtimoiy – iqtisodiy;
- rivojida ishtirok etishi;
- turizm obyektlari ichida tabiiylikni ko'pligi;
- turistlarni ekologiyadan bilimli bo'lishi va boshqa.

Hozirgi kunda jahon tajribasida **agroturizm** turi keng rivojlanmoqda. Agroturizmni ma'lum bir mintaqaning o'ziga xos dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini ko'rsatish maqsadida tashkil etilishi mumkin. Bu tajriba Yevropaning bir qancha davlatlarida rivojlangan. Masalan, Fransiya va Portugaliya mamlakatlarida uzumni yetishtirishdan boshlab, undan turli ichimliklar olishgacha bo'lган bir butun jarayon tur sifatida taklif etilgan. Agroturizmning

yo'nalishlardan biri qishloq turizmi alohida daromad keltiradigan tur hisoblanib, dunyo turizm xizmat bozorida alohida o'rinni tutadi.

Dam olish vaqtini har qanday shaharlik uchun qishloqdamni yoki dala xovlidamni juda ham maroqlidir. Bu xayot talabi bo'lib, doimo dala xovlilarini yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida sinalgan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olinadi. Qishloq turizmining o'ziga xos tomonlari shundaki, masalan, Sitsiliyaning agrar viloyatlarida ishchi kuchi yetishmasligi tufayli kambag'al turistlar yoki studentlarni ish haqi to'lamasdan, boshpana va ovqat uchun ishga yollashi mumkin. Bunday «dam oluvchi» usha yerga borib qaytishi uchun mablag' topsa bo'lgani. Yo'l-yo'lakay bir-ikki kun plyajlarda cho'milishi, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarini ko'rishi mumkin.

Qishloqda dam olish - bu tabiat qo'ynida bo'lish, yillar davomida shahar sharoitida yig'ilib qolgan charchoqlarni chiqarish, toza havo, ekologik toza bo'lgan oziq-ovqatlar, iqlim sharoitlarini o'zgartirish, aholi sonining kamligi, boshqa tartib-qoida va yashash madaniyati, qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etish, bog'dorchilik, chorvachilik, tabiat bergen in'omlarni toplash va qolaversa, dam olishning arzonligidan iborat.

Shahar aholisining yozgi issiq kунлардаги va qishki qorli kунлардаги xordiq olishlarini to'g'ri tashkil etish imkoniyati mavjudligini e'tiborga olib, qishloq turizmini respublikamiz hududida quyidagi tarzda tashkil etish tavsiya etiladi: katta bo'lмаган uylarni, qishloqlardagi katta bo'lмаган xonalarni, kottejlarni, tabiat manzaralari chiroyli bo'lgan joylarni ijaraga olish yo'li bilan.

Turistlar qishloqdagi fermerning uyida oilasini joylashtirishi maqsadga muvofiqdir, bu - turistlarni qishloq hayoti va u yerdagи yangi insonlar bilan yaqindan tanishtirishga, ularning urf-odatlari va qishloq xo'jalik ishlari bilan kuchi yetgan darajada ishlashga imkon beradi. Shubhasiz, bu uy egalari uchun noqulayliklar yaratadi, lekin fermerlar uchun qo'shimcha pul va yangilik olib keladi. Bunda turistlar uchun maxsus bir yoki bir necha xona ajratilib, barcha zaruriy narsalar yetkazib beriladi. Bunday turizmdan davlat ham, fermerlar ham daromad ko'radi. Shu jihatdan qishloq turizmini qulay va kamharajat turizm turi

deyish mumkin.

**Falokatlar sodir bo`lgan yerlarga, so`ngan vulqonlar, cho`kkan kemalarga turizm.** Halokatlar sodir bo`lgan hududlarga, masalan vayron bo`lgan shaharlarni, u yerdagi mashhur binolarda sodir bo`lgan mudhish voqealar va ko`p odam halok bo`lgan joylarga sayohat qilish. Ba`zi turistlar u yerni to`g`irlashga yoki tozalashga yordam beradilar, ba`zilari esa sur`atga oladilar yoki shunchaki tomosha qiladilar. Yevropadagi ba`zi turistlar qamoqlarda o`tirgan kishilarning kameralariga kirib, 1-3 kun davomida jinoyatchilar boshidan kechirgan kechinmalarni boshlaridan o`tkazishni xush ko`radilar. Buning uchun turistlar kuniga 120 dollar to`lashga ham rozi bo`ladilar.

**Xazina izlash turizmi.** U ikki turga bo`linadi:

1. Professional ekspeditsiyalar;
2. Havaskorlar - sarguzasht nuqtai - nazaridan. Eski oltin konlaridagi metallni qayta tiklash, Hind okeani qirg`oqlaridagi qimmatli toshlarni izlash bu sayyohlik asosini tashkil etadi.

**Shopping tur** - xarid maqsadidagi turizmdir. Unda savdo do`konlaridan, supermarket, minimarketlardan xarid maqsadida tovarlar sotib olinadi.

**Qiziqish tur** – sevimli mashg`ulotlar bilan shug`ullanish, vinoni tatib ko`rish va baholash, kolleksionerlarning yig`ilishi va boshqalar.

**Hodisa tur** - ommaviy bir martalik tadbirdarga sayohat: festival, mashhur artistlarning konsertlari, sport musobaqalarda ishqiboz sifatida, karnavalar, shahar kunlari va boshqalarda ishtirok etish.

**Gastronom tur** - turizmning bir ko`rinishi bo`lib, asosiy maqsad u yoki bu davlatning milliy taomlari bilan tanishishdan iborat.

Gastronom tur, yoki gastrotur - mahalliy taomlar majmuasini tatib ko`rish tadbiriga asoslangan.

Gastronom turni qishloq va shahar guruhlariga bo`lish mumkin. Qishloq gastroturi ekologik toza va tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarga asoslangan, masalan, o`rmonda yovvoyi mevalarni, uzumzorda uzumlarni, fermada sabzavotlarni termoq.

Shahar gastroturi esa qishloq gastroturidan farqli ravishda fabrika yoki zavodlarga borish, oziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni tatib ko'rishni o'z ichiga oladi.

Gastroturda turistlarni har-xil joylarda xilma-xil taomlar bilan tanishtirish imkonи mavjud. Bu Fransuz va Balgar vino turlari, Gollandiya, Shvetsariya va Italiya pishloq turi, Germaniya, Avstraliya, Chexiya, Belgiya pivo turlari degani.

Gastrotur turistlari quyidagi aholi ko'rsatkichlarda ko'rsatilgan:

- ✓ Oddiy turizmdan zerikkan turistlar uchun;
- ✓ O'zining ratsionaliga o'zgartirish kiritmoqchi bo'lgan turistlar uchun;
- ✓ Ovqat shinavandalari uchun;
- ✓ Ovqat tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari uchun;
- ✓ Turistik kompaniyalar o'zining gastroturlarni tashkil etishlari uchun;

Mutaxassislarning fikricha, ovqatlanish muassasalaridan gastronomik turizmni har doim ham boshqa turizm turlaridan ajratish mushkul, chunki milliy taomlar sayohat qilgan davlat madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi.

### **Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmi.**

Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmdagi bazi bir turlar faqat jahonda faqat bitta davlatda rivojlangan (masalan, korrido Portugaliyada, asov otni jilovlash Ispaniyada) bo'lib turizm mavsumida bu hayot uchun xavfli o'yinlarni millionlab turistlar hayajon, qo'rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bu turlarni ba'zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi.

**1.Beys jumping** - baland qoya va binolardan parashyutda sakrash.

**2.Xelisking** - chang'ida vertolyotdan qorli tik qoyaga sakrash.

**3.Dayving** – suv ostiga sho'ng'ish.

**4.Keyv-dayving** - suv osti g'orlariga sayohat.

**5.Bull – rayding** – asov ho'kizni (buqani) jilovlash.

**6.Korrido** – asov otni jilovlash.

**7.So'rfing** – okean, dengizning shiddatli, baland to‘lqinlaridan taxta chang‘ida suzib o‘tish.

**8.Stritlaging** – avtomobillar serqatnov tik tog‘ yo‘lidan pastga qarab rolikli taxtaga yotib harakatlanish.

**9.Alpinizm** – tik qoyalarga, baland binolarga himoyasiz, arqonsiz va asboblarsiz chiqish.

**10.Vellokross** - velosipedda havoda mashqlar bajarish, noqulay joylarga chiqish va tushish.

**11.Motokross** – mototsiklda yonayotgan obektlardan sakrab o‘tish.

**12.Rafting** - o‘ta tez oqadigan, havfli shovvalar, kamarlar bor daryo oqimi bo‘ylab maxsus qayiqlarda suzish.

**13.Dorbozlik** - himoyasiz va shartli himoyada baland bino, baland qoya va keng suv havzalariga tortilgan arqondan yurib o‘tish.

**14.Niagara** - baland, sersuv sharsharalardan (bochka ichida, maxsus kiyimda va h.k.) balanddan suv, bilan pastga tushish.

**15.Koinot** - kosmik kemada kosmonavtlar bilan fazoga borib kelish.

**16.Ralli-** Parij shahridan Afrika sahrolari orqali avtomobillarda, mototsikllarda Dakar shahrigacha bo‘lgan sport birinchiligi.

**17.Zaharli ilonlar**, chayonlar orasida o‘tirish, ilon o‘ynatish.

**Ekzotika (g‘alati, ajib) turizmi.** Keyingi yillarda o‘zining ajibligi bilan taajublanarli turlar paydo bo‘la boshladi. Bular qatoriga quyidagilarni kirlitsa bo‘ladi: «Manos trevel» nomli grek turfirmasi Oyga sayohatni rejalashtiradi. Rossiya kosmodromidan xorijiy biznesmenlarni kosmosga qiladigan sayohatlari, bu albatta turistlar tamonidan juda katta xarajatlar qilishni taqoza etadi. Bunda ushbu turistlar muallaq, muvozanatsiz holatiga tushadi va kosmosni ko‘rish sharafiga muyassar bo‘ladi. Parvozga yoziluvchilar hozirdan boshlangan, birinchi turistlar 5 ming dollardan kafolat summasini o‘tkazib joylarni bron qildilar.

«APSARA» nomli fransuz firmasi Antarktida va Arktikadagi muzliklarga sayohatlarni tashkil etdi. Antarktidaga birinchi kruiz 1989 yilda tashkil etilgan. Sayohat o‘z tarkibiga mazkur ekzotik joylarda nafaqatgina yashashni balki, u yerda

turistlar mahalliy aholi, tyulenlar, morjlar va pingvinlar hayotini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Suv osti dunyosi bilan tanishuvchilar keyingi vaqtarda ancha ko‘paymoqda. Bu yo‘nalishda eng istiqbolli loyiha bu musaffo suv osti qayig‘ida sayohat hisoblanadi. Uning marshrutlaridan biri «Titanik» kemasi cho‘kib ketgan joyda rejalashtirilmoqda.

**MICE** (qisqartirilgan)- uchrashuvlar, taqdirlanadigan korporativ marosimlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalar (Meetings, Incentives, Conferences and Exhibitions)ning **ishbilarmonlik turizmni** asosiy yo‘nalishlari bosh harflar bilan ko‘rsatilgan. Bu turdagи sayyoхlik dunyoda mashhur bo`lib, juda qulaydir. Odatda, bunday konferentsiya ishtirokchilari xarajatlarini uni yuborgan tashkilot yoki firma to`laydi. Shuning uchun AQSh, Shveytsariya va Finlyandiyada bu turdagи sayohat davlat turizm dasturi asosini tashkil etadi. Katta mehmonxonalarda barcha zarur narsalar bilan ta'minlangan katta va kichik kongress - hollar, majlis zallari, biznes markazlar, banket zallar, transport xizmati va shu kabi konferensiyalar, uchrashuvlar, taqdirlanadigan korporativ marosimlar va ko‘rgazmalar o’tkazish uchun kerakli xizmat turlari va binolar qurilgan.

Butun jahon ish yuzasidan sayohatlar va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council, WTTC) ning baholashi bo'yicha, 2010 yilda ishbilarmonlik turizmi dunyo bo'yicha 819 mld \$ tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich o'tgan yilga nisbatan 1,8 % ga kam. 2020 yilda esa bu ko‘rsatgich 1,589 trln \$, har yili 4,3 % ga o'sishini WTTC tomonidan bashorat qilinmoqda.

Har bir yirik Yevropa mamlakatida ishbilarmomlik turizmi va korporativ marosimlar bilan shug'ullanadigan kompaniyalar ko‘p bo'lsa ham so'zsiz tan olingan liderlar Yevropa, Osiyo va Amerikada atigi beshtadir. “Yirik beshlik” ka quyidagilar kiradi: American Express, Carlson Wagonlit Travel, Kuoni Group, Hogg Robinson Group va BCD Holdings. Bu esa komponiyalar ko‘p milliardli aylanmani, global filial tizimini, geografik faoliyatini, bir qancha o'nlab mamlakatlar va faylasuflik biznesini o'zida qamrab olishini tavsiflaydi.

2011-yil yakunlari hisobiga ko'ra, Butun Jahon Statistikasi MICE yo'nalishi (shahar va davlatlar)da ICCA ma'lumoti bo'yicha marosimlar o'tkazgan o'nlik liderlar ro'yxati.

3-jadval


O'nlik shaharlar		O'nlik davlatlar	
Shaharlar nomi	Marosimlar soni	Davlatlar nomi	Marosimlar soni
Vena	181	AQSH	759
Parij	174	Germaniya	577
Barselona	150	Ispaniya	463
Berlin	147	Buyuk Britaniya	434
Singapur	142	Fransiya	428
Madrid	130	Italiya	363
London	115	Braziliya	304
Amsterdam	114	Xitoy	302
Istambul	113	Niderlandiya	291
Pekin	111	Avstraliya	262

Manba: <http://www.mice.ru/>

## 2.2. O'zbekistonda mavjud sayohat turlari va turistlarning sayohat maqsadlari

O'zbekistonga kelayotgan turistlarning 85% 55 yosh va undan keksa ekanligi Markaziy Osiyoda bizning mamlakat katta yoshdagи turistlar uchun hammabop bo'lib bormoqda. Pensionerlar uchun mamlakatimizning ommabopligi sabablaridan biri Samaqand va Buxorodagi osoyishtalik atmosferasidir va bu shaharlarga barcha tur oqimlarning 90% to'g'ri keladi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda mavjud sayohat turlari foizlardagi ko'rsatgichi quyidagi diagrammada ifodalangan.



Manba: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentabr, 2011y.

O'zbekiston Turizm Vazirligi tomonidan taqdim qilingan statistik ma'lumotlarga qaraganda, 85% keksa yoshdagи turistlar odatda mamlakat bo'ylab ekskursiya qilishga qiziqadilar. 2008 yilda o'tkazilgan Internet Statistika so'rovlar natijasiga qaraganda esa sayyoohlarning -39% i mamlakatimizga tarixiy-madaniy, arxitektura yodgorliklarini ko'rish maqsadida tashrif buyuradilar. Qolgan -24% i yurtimizni madaniyati, urf-odatlari hayot tarzi bilan tanishish istaklari bilan keladilar. Ular O'zbekistonga eng yaxshi ob-havo sharoiti bo'lgan mavsumda, ya'ni aprel va may, sentabr-oktabr oylarda keladilar.

O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlangan turlardan biri hisoblanadi. Masalan, ba'zilar Toshkent shahrida saqlanayotgan "Usmon Qur'oni"ni ko'rish uchun tashrif buyurishsa (bu kitob O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasiidagi maxsus vakumli seyfda saqlanishi tufayli va uning nechog'li tarixiy ahamiyati katta ekanligini inobatga olib hammaga ham ko'rsatish imkoniyati yo'q. Asosan, musulmon mamlakatlaridan kelgan davlat arboblari va mutaxassislar uchungina namoyish etiladi), boshqalar imom Buxoriy, imom Termiziy, payg`ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchalari

Qusam ibn Abbosning qabrini ziyorat qilish uchun yurtimizga kelishadi. O`z fuqarolarimiz ham bunday joylarga ziyoratlarini uyushtiradilar.

Shuningdek, Bahovuddin Naqshband, Abu Mansur Moturudiy, Zangi ota, Anbar otin, Go`ri Amir kabi yuzlab ziyoratgohlar ham borki, bular respublikamizda diniy turizmning asosiy resurslar vazifasini o`taydilar. Shu o`rinda bir fikrni aytib o`tishni joiz, deb bilardim. Yaxshiki mamlakatimizdan dunyoni lol qoldirgan sarkardalar, olimu allomalar, fozilu fuzalolar etishib chiqishgan. Ularning o`zlaridan qoldirib ketgan madaniy meroslari tufayli davlatimiz dunyo tarixida o`chmas iz qoldirdi. Ilk uyg`onish va sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrlarida shunday ilmiy, madaniy va bunyodkorlik ishlari qilindiki, insoniyat yana necha yillar bular bilan faxrlanadi. Shular tufayli mana oradan neche yuz, xatto ming yillar o`tsa hamki, agar ta'bir joiz bo`lsa, davlatimiz obro`sni ortib, iqtisodiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo`lib qo`shilmoqda (hatto, bulardan xorijiy kompaniyalar ham manfaatdorlikda). Negaki, respublikamizda mavjud arxeologik va me'moriy yodgorliklarning xalqaro turizmda o`z o`rni va mavqeい ulkan.

Mamlakatimizda xaj va umra ziyorati masalalari bilan Musulmonlarning diniy idorasini hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi diniy ishlari qo`mitasi shug`ullanadi. Har yili 4 mingdan ortiq vatandoshlarimiz xaj ziyoratiga borib kelmoqdalar. Turistik tashkilotlar ham respublikamizda mavjud ziyoratgoh joylarga turlarni tashkil etmoqdalar.

“O`zbekturizm” milliy kompaniyasidan ma’lum qilishlaricha, 2011 yilning birinchi yarmida 1.3 million sayyohni jalg qilish hisobiga 226 million AQSh dollari ishlab olindi. O`zbekiston xalqining me’moriy va tarixiy obidalari, ko‘hna madaniyati, an’ana va urf-odatlari ko‘plab sayyoohlар e’tiborini tortayotgani sir emas. Ekspertlar O`zbekiston turizm xizmatlari va maskanlarini rang-baranglashtirish yo‘li bilan yuqorida keltirilgan raqamlarni ikki barobar ko‘paytirishi mumkin degan fikrda. O`zbekistonning ba’zi mintaqalarida iqlim va tabiiy muhit salomatlik va ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay joylardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasida 865 sayyohlik tashkiloti – 506 sayyohlik operatori faoliyat yuritmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatmoqdaki, O’zbekistonga tashrif buyurgan turistlar asosan “paketli” tizim bilan keladilar. Yurtimizda faoliyat ko’rsatayotgan yirik turfirmalar ham shu tizimda faoliyat olib boradilar va asosan madaniy, arxeologik, tarixiy obidalarimizni turistlarga taqdim etadilar. O’zbekistonda yirik turfirmalardan biri “Sogda” va “Orient voyage” quyidagi paketlarni taklif qiladilar.

#### 4-jadval

<b>Sogda</b>		<b>Orient voyages</b>	
<b>AFSO-NALAR SHAHRI PAKET DASTUR</b>	<b>1-kun Shanba Moskva Urgench (Xiva) Ichan qal'a 2-kun Xiva-Buxoro Yakshanba O’zbek milliy hammomiga tashrif buyurish 3-kun Dushanba Buxoro bo'ylab Ekskursiya (Bolo-hauz majmuasi, Ark Somoiylar maqbarasi, Lyabi-houz ansambili, Poyi-kalon ansambili, Tim abdullahxon, Savdo inshoatlari 1,2,3 -kupollar) 4-kun Seshanba Buxoro-Samarqand (Siab bozori, Shoxi-Zinda maqbarasi, Registon Maydoni, Go'ri Amir) 5-kun chorshanba “Meros” kulolchilik ustaxonasiga tashrif buyurish 6-kun Samarqand-Moskva sayohat yakuni</b>	<b>“BUYAK IPAK YO’LI” PAKET DASTURI</b>	<b>1-kun Toshkentga yetib kelish. 2-kun Toshkent bo'ylab Ekskursiya(Mustaqillik maydoni, Navoiy teatr maydoni,Barak-Xan madrasasi, Kaffal-Shashi maqbarasi, Ko'kaldosh madrasasi, Amaliy san'at muzeyi,) Kechqurun Urgenchga uchish 3-kun Urgench-Xiva Xiva shahri bo'ylab Ekskursiya(Ismoil Xo'ja maqbarasi, Kalta minor, Pahlovon Mahmud maqbarasi) 4-kun Urgench Ayaz qal'a va tuproq qal'aga ekskursiya 5-kun Urgench Buxoro 6-kun Buxoro eski shahri bo'ylab Ekskursiya(Ark, Somoiylar maqbarasi, Lyabi-houz Ansambili) 7-kun Buxorodagi Moxi-Xossa, Chor-Bakrga sayohat 8-kun Buxoro- Shaxrizabz-Samarqand Shaxrizabz shahri bo'ylab Ekskursiya(Oq Saroy,Ko'k Gumbaz,Hazrat Imom maqbarasi,Saydon gumbaz maqbarasi). Samarqandga borish. 9-kun Samarqand shahri bo'ylab Ekskursiya(Registon maydoni, Bibi-Xonum maqbarasi, Go'ri Amir) 10-kun Samarqand Ulug'bek madrassasi, afrosiyob arxeologik va o'lakashunoslik muzeyi, Shoxi-zinda majmuasi. 11-kun Samarqandagi O’zbekiton tarix va madaniyati muzeyiga tashrif buyurish, kechqurun Toshkentga borish. 12-kun Toshkentdag'i xalqaro airoport.</b>

Xalqaro turistlar tomonidan eng katta qiziqish quyudagi ko'rsatgan Toshkent - Samarqand - Buxoro -Urganch - Toshkent ekskursiya-tanishuv marshrutiga bildirilgan. Ushbu yo'naliш O'zbekistonning eng muhim tarixiy yodgorliklari bilan tanishish, milliy an'analar va uduumlarni kuzatish hamda qadimiy shaharlar hayotiga qo'shilish imkoniyatini beradi. Turopertorlarning fikrlaricha, Surxondaryo tarixiy-arxeologik markaz sifatida shuhrat topib borayapti.

Xalqaro turizm xizmat bozorida O'zbekiston o'z turistik mahsulotini asosan «Buyuk Ipak yo'li» reklamasi – brendi orqali sotadi. Bu loyiha bo'yicha eng ko'p sotiladigan turlar quyidagilar bo'ldi:

- Toshkent - Samarqand - Buxoro - Urganch - Toshkent;
- Toshkent - Samarqand - Shahrisabz - Buxoro - Urganch -Toshkent.

O'zbekistonga chet eldan keluvchi touristlarning 76 % Buxoro, Samarqand, Xorazm va Toshkentga tashrif buyurishga qiziqsa, qolgan 24% Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlariga tashrif qiladi.

Shunga qaramasdan, katta hajmdagi turistik marketingni barpo qilish uchun bugun O'zbekistonga ancha davomli turistik mavsum zarur. Bugun mamlakatimiz davomli turistik mavsumni oshirish srtategiyasini ishlab chiqmoqda (hozigi kunda bu mavsum 3 oy atrifida). 2011 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mamlakatimizga yosh touristlarni jalb qilish maqsadida marketing strategiyasini va axborotlar kompaniyasini ishlab chiqdi.

Tyan-Shan, Pskema, Ugama tog' tizmalarida piyoda sayohatlar, djiplardagi safari va tog' daryolardagi rafting kabilar O'zbekistonda ham turizm sarguzashtlarining yangi mahsuloti bo'lishi va O'zbekistonga touristlarning yosh avlodini jalb qilishi mumkin. Bizda ham bunday turlarni taklif qiluvchi kampaniyalar mavjud, ammo ularga xalqaro darajadagi aksiyalari zarur. Chunki dunyo odamlari O'zbekistonni faqat tarixiy diqqatga sazovor joylarni taklif qilib biladi deb o'ylashadilar. O'zbekistonni bunday tasavvur qilishi keksa yoshdagি touristlar orasida uni hammabop bo'lishi sabablaridan biri hisoblanadi.

## **2.3. O’zbekistonda sayohatning yangi turlarini rivojlantirish istiqbollari**

O’zbekiston **ekologik turizm** va uning sarguzasht turlaridan rafting, trekking, miniladigan turizm (“door of road”), agroturizm, alpinizm va boshqa sport turlarini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga va o’ziga xos xususiyatlariga ega. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo’lgan obyektlar, ya’ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o’simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan organizmlar genofondi, ajoyib tabiat komplekslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

Ekologik turizm nuqtai-nazaridan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tayanch hududlar sifatida qaralmog’i lozim. G’arbiy Yevropa mamlakatlari o’zlarining tabiiy landshaftlaridan allaqachon mahrum bo’lganliklari sababli, yildan yilga boshqa mamlakatalrning tabiatiga bo’lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun turistik resurslardan samarali foydalanishda tabiat muhofazasining o’rni katta.

Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O’zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalg’ etish, noyob o’simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko’paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta’minlab iqtisodiyotimizni rivojlantirishiga katta hissa qo’shadi.

Hozirgi vaqtida O’zbekiston hududida – qo’riqxonalar, milliy bog’lar, tabiatning nodir yodgorliklari mavjud.

O’zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km<sup>2</sup> maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo’riqxonasi, 6061 km<sup>2</sup> maydonni tashkil etgan 2 ta milliy bog’ va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko’paytirish “Jayron ekomarkazi”, 12186 km<sup>2</sup> maydonni tashkil etgan 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni umumiy maydoni 20520 km<sup>2</sup>, yoki O’zbekiston hududining 5,2 % ni tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yetarli darajada shart – sharoitlar, infratuzilma, hamda moddiy – texnik bazasining, servis xizmatlarini yaxshi yaratilmaganligi mamlakatimizda

ekoturizmni rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan, Prezidentimizning 2006 yil 17 – aprelda “O’zbekiston Respublikasi 2006 – 2010 yillarda xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi 325 sonli qarori chiqdi. Bu bo'yicha Respublikamizda ayrim ishlar boshlangan. Masalan, hozirgi kunda O’zbekistonda ekoturizm yo’nalishlari «Ekosan» xalqaro jamg’armasining ekoturizm bo’linmasi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Yo’nalishlar hozircha Zomin milliy bog’i va Nurota qo’riqxonalariga uyushtirilgan. Undan tashqari ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi “O’zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiysi va uning yaqin kelajakdagisi istiqbollari”ni ishlab chiqdi.

O’zbekiston tabiat rang – barang bo’lib, yilning issiq vaqtlaridan tashqari, qish va kuz fasllarida ham dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog’li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon sport – dam olish majmuasi katta imkoniyatlarga ega.

Xuddi shunday majmualarni Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tog’li mintaqalarida ham tashkil etish mumkin. Sog’likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlar soni mamlakatimizda 200 dan ortadi. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko’ra bir – biridan farq qiladi. Shuning uchun bu joylarda turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog’lomlashtirish muassasalar qurish mumkin. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog’ soyliklari rekreatsiya resurslariga boy bo’lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish ko’paysa, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta’minlanib, iqtisodiy daromad oshadi.

**Muzey turizmi** turizmning xilma-xilligi bo’lib, o’ziga xos xususiyati muzeylar va ularga yondashgan hududlardan turistik potensial sifatida foydalanish. Muzeylar va turizmning hamkorligi tarixiy madaniyat va tabiat hududlari tizimi shakllanishiga asoslangan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 110 muzey bor. Ularning 28tasi (shu jumladan yirik muzeylarning filiallari ham) vazirlik ixtiyorida. Turli kolleksiyaga ega bo'lган muzeylarning mavjudligi O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini xususiyatlarini aks etdiradi. Muzeylar madaniy, tarixiy, badiiy me'rosimiz, xalqlar dini va e'tiqoti, ularning an'analari bilan tanishtirib, yoshlarimizni vatanparvarlikka va buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o'rgatadi. Respublika muzeylarining ichida 3 ta muzey-qo'riqxona: Samarqand, Buxoro, Xiva («Ichan-Kala»); 3ta yirik badiiy muzeylari: O'zbekiston Davlat san'at muzeyi (Toshkent shahari); Davlat xalq-amaliy san'ti muzeyi, Nukus shaharidagi Saviskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi mavjud.

O'zbekistonda yagona bo'lgan (Toshkent sh.) Tabiat muzeyi 120 yildan beri mavjuddir. Muzey jamgarmasida 1.5 mln. ekponatlar bor. Qadimiy muzeylardan biri- O'zbekiston xalqlarining tarixi muzeyi respublika tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tekshiruvlar olib boryapti. A.Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi juda katta kitob va qo'lyozma jamgarmasiga ega. O'zbekiston tibbiyat muzeyi (Toshkent) tibbiyat bilimlari tashviqoti, ekologiya muammolari, sanitariya va gigiyena tarixi bilan tanishtiradi. Abu Ali ibn Sinoga bagishlangan zali bor.

Toshkentda Olimpiya shon-sharafi muzeyi, Urush va mehnat sharifi muzeyi, kino san'ati muzeyi tashkil qilingan; badiiy ko'rgazma direksiyasi, RTVS «O'zeksposentr», U.Tansikbayev, Tamara xonum, A.Qahhor, G'afur G'ulom muzeylari ishlaydi. Har bir viloyatda o'lka muzeylari mavjud. Angren, Sirdaryo, Urganchda badiiy galereyalar ochilgan.

Andijon, Namangan va boshqa bir qator shaharlarning o'lkashunoslik muzeylarida hozirgacha eskirgan ekspozitsiyalar mavjud. Bundan tashqari, Qarshi, Urganch, Buxoro singari qadimiy tarixga ega shaharlar qanchalik ulug'vor bo'lsada, ularda hozirgacha o'zlarining o'lkashunoslik muzeylari yo'qligi ta'kidlandi.

O'zbekiston madaniyati vazirligi xalqaro «Oltin meros» xayriya fondi, Badiiy akademiyasi bilan birgalikda muzeylarning kelajak faoliyatini yaxshilash dasturini

yaratdi. Respublikaning madaniy hayotidagi yutuqlarini tashviqot qilish maqsadida «Moziydan sado» jurnali yaratildi. Xorij tajribasidan ma'lumki muzeylardan turizm faoliyatida keng foydalaniladi. Shu sababdan mavjud muzeylarimizni keng targ'ibot qilish orqali turizm maqsadida foydalanish hozirgi kunning dolzARB masalasidir. Jahon **tibbiy turizmini** rivojlantirishga omil bag'ishlash maqsadida Turkiya tibbiy turizm uyushmasi, Turkiya sog'liqni saqlash vazirligi hamda Madaniyat va turizm vazirligining qo'llab-quvvatlashida Tibbiy turizm bo'yicha to'rtinchi xalqaro kongressni tashkil etdi.

Kongerss ishida dunyoning 25dan ortiq mamlakatidan kelgan mutaxassislar butun dunyoda va alohida turli mintaqalarda tibbiy va davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish tamoyillarini muhokama qildilar.

“O’zbekturizm” MK va Sog'liqni saqlash vazirligi vakillaridan iborat bo’lgan O’zbekiston delegatsiyasi tadbir doirasida respublikaning turistik salohiyati va sog'liqni saqlash tizimining rivojlaninshi to’g’risida axborot taqdim etdi. Bundan tashqari, Turkiya tarafi vakillari bilan tibbiy turlarni amalga oshirish borasida muntazam tajriba almashish to’g’risida muzokaralar olib borildi.

Kongress ishi davomida ta’kidlandiki, yildan-yilga tibbiy turizm dunyoning turli mamlakatlaridan o’n minglab kishilarni jalg etmoqda, bunga turli kasalliklarni davolashda yuqori malakali yordam ko’rsatishga tayyor xalqaro tibbiy markazlarning ochiqligi prinsipli imkon yaratyapti. Tibbiy turizmnинг mashhur bo’layotganiga boshqa mamlakatda bir vaqtning o’zida davolanish, dam olish va uning o’ziga xos madaniy jihatlari bilan tanishish imkoniyati ham omil bag'ishlayapti.

Shuni aytish lozimki, O’zbekiston davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun noyob tabiiy resurslarga ega. Mamlakatda tabiatni muhofaza qilish to’g’risidagi qonun hujjatlari e’tirof etgan bir qator rekreatsiya zonalari (Chimiyon-Chorvoq, So’qoq, Oqsoqota-Parkent, Pargos-Oq tosh va boshqa zonalar) yer osti suv resurslari, shu jumladan turli kimyoviy tarkibli 60dan ortiq ma’danli suv manbalari, shuningdek shifobaxsh xususiyatlarga ega bo’lgan musaffo tog’ havosi mavjud hududlar oz emas.

O'zbekiston Respublikasi hududida turizmning **maxsus turlarni** rivojlantirish, ularni kengroq targ'ib etish butunjahon turizm olamida yurtimizning omad sari tashlangan samarali qadami bo'lgan bo'lar edi. Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o'yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o'yinlarga taklif qilish vaqtłari aniq bo'ladi. Xuddi shuningdek, ko'pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o'ziga jalb qiladigan g'oyat qiziqarli turistik obyekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

## 5-jadval

### O'zbekistondagi turizmning maxsus turlarining geografik ro'yxati.

<b>№</b>	<b>Turizmdagi maxsus turlar</b>	<b>Turizmda qiziqish, foydalanish obekti</b>	<b>Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar</b>
1	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlар munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'y, mehmon kutish va mehmondorchilik marosimlari	O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
2	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli - tumanligi va tabiiy – tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlar
3	Etnik va sog'inish turizmi	Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi,	-O'zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida - O'zbekiston Respublikasi va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari

		o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi	
4	Sarguzasht turizmi	Tabiat mintaqalariga, uzoq yurtlarga, ellarga, tog‘larga tavakkali ga yoki reja asosida piyoda yoki trans- portda yo‘lga chiqish	O‘zbekistonda rivoyjlantirishga qiziqish juda kam
5	Milliy san’at turizmi	Milliy san’at, qo‘sinqchilik, raqs, rassomchilik, baxshilar hayoti, askiyalar, laparlar, milliy folklor	O‘zbekiston Respublikasining hududlarida
	5.1 Qo‘sinqchilik	5.1 Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog‘iston viloyatlari
		5.1.2. Samarkand usuli	Zarafshon vodiysi
		5.1.3. Farg‘ona usuli	Farg‘ona vodiysi
	5.2. Qo‘sinqchilik- da baxshilar faoliyati	5.2.1 Qashqadaryo- Surxondaryo usuli	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati,
		5.2.2. Zarafshon – Nurota usuli	Samarkand viloyati, Navoyi viloyati
		5.2.3. Xorazm usuli	Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston
	5.3 Raqs san’ati	5.3.1. Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro viloyatlari
		5.3.2. Qoraqalpoqcha usuli	Qoraqalpog‘iston
		5.3.3. Buxorocha usul	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi
		5.3.4. Farg‘onacha usul	Farg‘ona viloyati, Toshkent viloyati,
	5.4 Askiyalar, aytishuvlar	5.4.1. Askiyalar	Farg‘ona vodiysi
		5.4.2. Aytishuvlar	Qoraqalpog‘iston, Xorazm
	5.5 Milliy rassomchilik va haykal- taroshlik	5.5.1. Rassomchilik	Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent
		5.5.2 Haykaltaroshlik	Samarkand shaxri, Toshkent shaxri
		5.6.1. «Boysun»	Surxondaryo viloyati,

	5.6. Milliy folklor san'ati	folklori	Boysun tumani
		5.6.2 «Lazgi» folklori	Xorazm viloyati
		5.6.3 «Besh qarsak» folklori	Samarkand viloyati Urgut tumani
		5.6.4 «Oyguloyim» folklori	Qoraqalpog‘iston
6	Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi  6.1 Tabiat muzeylari	6.1.1.Sharsharalar	«Arslonbob»-Farg‘ona
		6.1.2. Qadimiy buloqlar	“Baxmal”, “Forish”, «G‘allaorol» tumanlari Jizzax viloyati, «Nurota»tumani, Navoiy viloyati va hok.
		6.2 Qoyatoshlar-dagi qadimiy rasmlar	6.2.1.Tabiat haykallari
		6.3 Hayvonot bog‘lari	Urgut tumani, Nurobod tumani, Samarkand viloyati, «G‘allaorol» tumani Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati
	6.4.O‘lkashunoslik muzeylari	6.3.1.Noyob hayvonlar yashash tarzi	Toshkent shahri Termez shaxri
	6.4.1. Dunyo tabiatidagi hayvon va parrandalar kolleksiysi	Viloyatlar markazi bo‘lgan shaharlar	
7	Milliy hunarmandchilik turizmi  7.1.Duradgorlik va uning maktablari	7.1.1.Yog‘ochga o‘yma shakl solish	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarkand usuli, Buxoro usuli, Farg‘ona usuli
		7.1.2.Sovg‘alar, shkatulkalar	Buxoro usuli, Samarkand usuli
	7.2. Kulolchilik va uning maktablari	7.2.1. Sopol buyumlar yasash	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
	7.3.Kashtachilik	7.3.1.Matoga rangli Gul solish	Buxoro usuli, Samarkand usuli, Jizzax usuli, Cho‘lliklar usuli
		7.3.2.Zardo‘zi kashtachilik	Urgut usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
		7.4.1. Milliy do‘ppi	Farg‘ona viloyati,

			Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Xorazm viloyati
7.4. Milliy liboslar	7.4.2. Milliy to‘n  7.4.3. Atlas va beqasam buyumlar  7.4.4. Baxmal buyumlar	7.4.2. Milliy to‘n	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati, Jizzax viloyati
		7.4.3. Atlas va beqasam buyumlar	Marg‘ilon shaxri
		7.4.4. Baxmal buyumlar	Samarkand shahri
7.5 Milliy ustachilik	7.5.1.Temirchilik, qadimiy asboblar  7.5.2.Misgarlik  7.5.3. Musiqasozlik  7.5.4.Beshiksozlik  7.5.5. Aravasozlik  7.5.6. Sandiqsozlik  7.5.7.Egarsozlik  7.5.8. Mahsido‘zlik  7.5.9. Gilamchilik  7.5.10.Palos to‘qish	7.5.1.Temirchilik, qadimiy asboblar	Respublikadagi tumanlar
		7.5.2.Misgarlik	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona, Xiva
		7.5.3. Musiqasozlik	Samarkand Xorazm, Farg‘ona vodiysi
		7.5.4.Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Urgut
		7.5.5. Aravasozlik	Qo‘qon
		7.5.6. Sandiqsozlik	Urgut, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi
		7.5.7.Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati
		7.5.8. Mahsido‘zlik	Namangan
		7.5.9. Gilamchilik	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati,
		7.5.10.Palos to‘qish	Cho‘l xalqi, Jizzax va Navoiy viloyati
8	Milliy o‘yinlar turizmi 8.1.Ko‘pkari – uloq	8.1. Chavandoz ot ustidagi tortishuvda marraga uloq olib borishi-ko‘pkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy
9	8.2. Milliy	8.2.Polvonlar kurashi	Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati,

	kurash	musobaqasi	Surxondaryo viloyati
10	8.3. Qo‘chqor urishtirish	8.3. Qo‘chqor urishtirish musobaqasi tomoshasi	Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Buxoro viloyatlari
11	8.4. Xo‘roz urishtirish	8.4. Xo‘roزلار jangi tomoshasi	Samarkand shahri, Buxoro shahri, Farg‘она vodiysidagi shaharlar
12	8.5. Bedana urishtirish	8.5. Bedanalar jangi tomoshasi	Samarkand, Buxoro, Farg‘она vodiysidagi shaharlar
12	8.6.Dorbozlik	8.6 Baland tortilgan arqonda yurish, o‘yin ko‘rsatish	Toshkent viloyati, Farg‘она viloyati
14	G‘orshunoslik turizmi	9.Tabiatdagi yer osti qasrlariga sayohat. 9.1 Amir Temur g‘origa qiziqish	O‘zbekiston hududidagi g‘orlar (400 makonda), Qashqadaryo viloyati
15	Agroturizm	10.Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish(xalqaro turizm uchun)	O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlar hududlari

Bunday maqsadlarni, rejalarini amalga oshirish uchun shaharlardagi maxsus turlarning jahon andozalari bo‘yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o‘zbek-rus va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxonalar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg‘a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo‘lishi shubhasizdir. Bu buklovlar turist vataniga qaytganidan keyin uning ko‘plab vatandoshlarini qiziqtirishi mumkin.

Ma’lumki, xalqaro turistlar oqimi Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg‘она vodiysi va Shahrisabz shaharlarida kuzatilmoida. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo‘llash vaqtini keldi nazarimda.

## Xulosalar va takliflar

Turizm sohasi jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u XXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Turizm insoniyat tamaddunining mahsuli. Ushbu tushuncha o'zining nazariy va amaliy talqiniga ega. Shu tufayli uni atroflicha izohlash uchun unga odamlarning harakati, iqtisodiy kategoriya, siyosiy vaziyat, faol dam olish kabi jihatlardan qarash va izohlanishni talab qiladi.

Men "Turistlarning sayohat maqsadlari" mavzusini yoritish jarayonida turizmning maqsadlariga alohida ahamiyat qaratdim. Chunki, maqsadsiz turizm bo`lmaydi. Uni o'rghanish muhim masala hisoblanadi. Har bir sayohat yoki tur zamirida unga sabab bo`luvchi asosiy maqsad yotadi, unga ko`ra bu sayohatdan turizmning biror turiga mansubligi aniqlanadi, turist va uning turi statistikaning u yoki bu turiga kiritiladi, unga turli xil imtiyozlar beriladi.

Keyingi "Turizmning turlari va ko'rinishlari" mavzusida esa turizm turlari va uning turli ko`rinishlari bayon qilinib, unda turizm shakllari, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistiklarni joylashtiruv vositalari, ishtirokchilar soni bo'yicha va boshqa tasniflar haqida fikr yuritilgan. Hamda yurtimiz mutaxassislari tomonidan ushbu mavzu bo'yicha ilmiy qarashlari yoritib o'tilgan.

Sayohat qilishni tug'diruvchi motivlarni bilish, samarali turistik siyosat va turizm iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi. Men "Sayohatga bo'lgan ehtiyojni tug'diruvchi omillar" mavzusida sayohat qilish motivlari - turistik maqsadida ma'lum joylarga kelishga undaydigan va ularning xohishlarini qondiradigan psixologik va jismoniy talablar va boshqa o'ziga xos motivlar haqida chuqurroq to'xtalib o'tishga harakat qilganman.

Bilamizki Turizm kelajagi porloq va juda qiziqarli sohalardan biri bo'lib, unda doimiy ravishda o'zgarishlar va yangilanishlar bo'lib turadi. "Turizmning zamonaviy turlari" mavzusida bu sohadagi zamonaviy turizm turlari va ular haqida chuqurroq ma'lumot berishga harakat qilganman.

O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega. Mamlakatimizdagi noyob tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar, xushmanzara tabiat va fayzli go‘shtalar, xalqimizning betakror madaniyati, an’analari butun dunyodan sayyoohlarni o‘ziga rom etmoqda. Men ”O‘zbekistonda mavjud sayohat turlari va turistlarning sayohat maqsadlari” mavzusida yurtimizdagi mavjud turizm turlari, tashrif buyurgan turistlar va ularning sayohatdan asosiy maqsadlari haqida kengroq fikr yuritganman.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, turizmni taraqqiy ettirish, sayyoohlarni oqimini ko‘paytirishda zamonaviy turizm turlarini yaratish, yuqori sifatdagi xizmatni taklif etish muhim omillardan biri hisoblanadi. ”O‘zbekistonda sayohatning yangi turlarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida men ekologik turizm, agroturizm, muzey turizmi, tibbiy turizm va turizmning maxsus turlari, yurtimizda ushbu sohada qilinayotgan istiqbolli ishlar borasida ma’lumot berishga harakat qilganman.

O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. O’ylaymanki, yaqin kelajakda Yurtimiz ham turizm olamida ulkan yutuqlarga erishib, rivojlangan davlatlar qatoridan shak – shubhasiz o’rin oladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A.Karimovning 2013-yil 18-yanvardagi Qarori . “2012-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to‘g‘risida”.
2. I.A.Karimov. “Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamrohlik yo‘li”. Toshkent, O’zbekiston, 2003 yil 318-bet
3. O’zbekiston Respublikasining “Turizm to’g‘risidagi” qonuni. Xalq so’zi, 1999yil 20 avgust.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli “Buyuk Ipak Yo‘li”ni qayta tiklashda O’zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to’g‘risidagi” Farmoni. Xalq so’zi, 1995 yil 3- iyun.
5. I.S.Tuxliyev “Turizm asoslari ” fanidan o‘quv qo‘llanma, Samarqand 2010.
6. Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna “Turizm asoslari fanidan” o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2011.
7. M.N. Pardayev, R.Atabayev ma’ruzalar matni, Samarqand 2007.
8. N.E.Ibodullayev. “O’zbekistonning turistik resurslari” (ma’ruzalar matni). Samarqand, 2008.
- 9 R.Xayitboyev. R.Amriddinova – “Turizmning maxsus turlari”, uslubiy qo‘llanma. Samarqand 2008.
10. Ibragimov.N.S “O’zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinasion menejment konsepsiyasini qo’llash” Avtoreferat. Samarqand - 2008.
11. F.S. Qulimurotov, ”Turizm infratuzilmasi”, o‘quv qo‘llanma. –Toshkent 2007.
12. X. Abulqosimov. “O’zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari”. Magistirlilik dissertatsiyasi. TDIU 2005 – 81 b.
13. «Finansi i statistika». Moskva, 2003.
14. V.A. Kvartalnov «Teoriya i praktika turizma». Moskva.
15. A.P. Durovich «Organizatsiya turizma» Moskva 2005.
16. M.B. Birjakov «Vvedeniye v turizm» Izdatelstvo dom Gerda, 2006.

17. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011y.
18. <http://www.travel.ru/news/2012/09/08/205330.html>
19. <http://www.travel.ru/news/2011/11/30/195940.html>
20. [www.peugeotfa.ru](http://www.peugeotfa.ru)
21. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru)
22. [www.world-tourism.org](http://www.world-tourism.org)
23. [www.e-tours.ru](http://www.e-tours.ru)
24. [www.travel-library.com](http://www.travel-library.com)
25. <http://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL>
26. [www.aza.uz](http://www.aza.uz)
27. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru)
28. [www.uzbektourizm.uz](http://www.uzbektourizm.uz)
29. [www.ekonomtour.ru](http://www.ekonomtour.ru)
30. <http://www.mice.ru>
31. <http://translate.googleusercontent.com>